

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo`lyozma huquqida**

**UDK 339.137:338.45:621 (575.1)**

**Imomnazarova (Rixsieva) Nodira Shavkat qizi**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MASHINASOZLIK  
SANOATINING RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISH  
YO`NALISHLARI**

(TASHQI IQTISODIY ALOQALAR, INVESTITSIYALAR VA SAVDO VAZIRLIGI  
MATERIALLARI ASOSIDA)

**5A230102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**i.f.n., dotsent Xotamov I.**

**Toshkent – 2017 y.**

Magistrlik dissertatsiya ishida O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari, mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati, mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rni, respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyati o`rganilgan. Shuningdek, mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlili, “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlili amalga oshirilgan, O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari bo`yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

In this dissertation it has been studied the term “Mechanical engineering”, “Competitiveness”, its role and the necessity of effectively organizing it, the system of indicators of mechanical engineering of the Republic of Uzbekistan and the analyse theoretical tasks about export goods of mechanical engineering. It has been analysed the factors determining the enhancing competitiveness to the product of engineering industry and the recommendations has been given in order to organize the effective enhancing competitiveness factories of assotiation “O`zeltexsanoat” and the Republic of Uzbekistan of enterprise in the conditions of increasing competitiveness of economy and putting into practice the effective marketing research in the enhancing competitiveness.

Magistrlik dissertatsiya ishi “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki himoyadan o`tgan.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomma “\_\_\_\_\_” 2017 y.

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ i.f.n., dotsent Xotamov I.

Илмий раҳбар: i.f.n., dotsent Xotamov I.

ИМЗО

сана

Магистр: Imomnazarova (Rixsieva) N.Sh.

ИМЗО

сана

## MUNDARIJA:

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>1-Bob. O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari.....</b>	<b>10</b>
1.1. Mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati.....	10
1.2. Mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rni.....	25
1.3. Respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyatidan samarali foydalanish.....	32
1-bob bo`yicha xulosalar.....	39
<b>2-Bob. Mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlili.....</b>	<b>41</b>
2.1. “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlili.....	41
2.2. Korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ta`sir etuvchi omillar tahlili.....	59
2-bob bo`yicha xulosalar.....	75
<b>3-Bob. O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari .....</b>	<b>77</b>
3.1. Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish istiqbollari.....	77
3.2. Mashinasozlik sohasida tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish yo`nalishlari	86
3-bob bo`yicha xulosalar.....	94
<b>Xulosa va takliflar.....</b>	<b>95</b>
<b>Foydanilgan adabiyotlar ruyxati.....</b>	<b>98</b>

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbliji.** So`nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiyalash bo`yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi, jahon iqtisodiyotida hamon saqlanib turgan inqiroz holatlari va jahon bozoridagi narxlarning 2016 yilda mamlakatimiz eksport salohiyatiga salbiy ta`sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Yurtimiz eksportyorlarining tashqi bozordagi o`rnini saqlash, shuningdek mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash maqsadida, tashqi bozorga mahsulotlar etkazish hajmini oshirish, eksportga yo`naltiriladigan mahsulotlar geografiyasi va nomenklaturasini diversifikatsiyalash, yangi korxonalarni eksport faoliyatiga keng jalb etish bo`yicha ishlar davom ettirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatni yanada chuqurlashtirishning ayrim masalalari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida o`z tasdig`ini topdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev sanoat korxonalarida raqobat kurashi va mahsulotlarining bozor jozibadorligini oshirish jarayonlarini tanqidiy baholab ta`kidlaganidek, “Bu o`rinda gap faqat eksport hajmining o`sish ko`rsatkichlari haqida borayotgani yo`q. Kun tartibida o`ta jiddiy masalalar turibdi. Bular – mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalarning raqobatdoshligini ta`minlash, “nou-xau” namunalarini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya`ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlash bo`yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Bizda ulkan rezervlar bor. Lekin shunga qaramasdan, o`tgan yili jami 1 milliard 540 million dollarlik prognoz ko`rsatkichlari bajarilmay qoldi. Shundan 570 million dollari Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli korxonalarga to`g`ri keladi. 970 million dollar miqdoridagi ko`rsatkichlar esa hududlardagi

xo`jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan bajarilmagan. Bizning mahsulotimiz eksport qilinadigan mamlakatlar soni 2010 yilga nisbatan 176 tadan 138 taga kamaygan<sup>1</sup>.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan import o`rnini qoplovchi va eksportga yo`naltirilgan tovarlar ishlab chiqarish siyosati natijasida eksport-import tarkibi tubdan o`zgartirilmoqda. Iqtisodiyotning muhim strategik tarmoqlarida (yoqilg`i-energetika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoati) davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash va faol davlat siyosatining olib borilishi natijasida respublikamizning energetika va oziq-ovqat mustaqilligi kabi muhim masalalar hal qilindi. Mashinasozlikning tez sur`atlar bilan rivojlanishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining yangi tovar nomenklakturasi bo`yicha jadal o`sishiga imkoniyat yaratdi (avtomobillar, radioelektronika va elektrotexnika mahsulotlari va boshqalar). O`zbekistonda mashinasozlikning rivojlanishi borasidagi asosiy natijalar texnik va texnologik mustaqillikni ta`minlash uchun xaligacha etarli emas. Respublikamizning tabiiy-iqtisodiy resurslari, transport tizimi, jug`rofiy jihatlari uning xalqaro hamkorlikda qay darajada ishtirok etishini belgilab beradi. Mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanish natijasida respublikamizning kuch va qudratini, iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro mehnat taqsimotida o`z o`rnini egallashida iqtisodiyotning ustuvor yo`nalishlarini rivojlantirish, import o`rnini bosadigan va eksportga mo`ljallangan mahsulotlar assortimenti, hajmini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Respublikamizning iqtisodiy salohiyati juda yuqori, erishilgan yutuqlar darjasini hali qoniqarli deb bo`lmaydi. Ayniqsa mashinasozlik sanoatining rivojlanishi, eksport imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kun talablariga javob bermaydi. Respublikamiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda, iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirishda mashinasozlik tarmog`i hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy texnika-texnologiya, nau-xou, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari, keng

---

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanjidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” mavzysidagi ma`ryza – Xalq so`zi. 2016 yil 16 yanvar.

iste`mol tovarlari shu sohada yaratiladi. Ikkinchi jihatdan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun mashinasozlik ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqa xizmat qurollari etkazib beradi. SHu jihatdan mashinasozlik tarmog`ining jadal rivojlanishi, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirishning zaruriy omillaridan biri sifatida namoyon bo`ladi.

Shundan kelib chiqib, mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va natijada O`zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishda ularning roli va ahamiyatini oshirish dissertatsiya ishining asosiy mavzusi va mazmuni hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining o`rganilganlik darajasi.** Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek bu tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalarning rolini tadqiq qilish doimo iqtisodiyot fanining diqqat markazida bo`lgan. Yuqoridagi masalalarini o`rgangan jahoning taniqli olimlari sanalgan – xorijlik iqtisodchilar Makkonnell, S. Bryu. Fisher V.S., Dornbush R. Shmalenzi, Bodi Z., Keyn A., Markus A.<sup>2</sup> va boshqalar hisoblanadi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga oid masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S.G`ulomov, Xodiev B.Yu., D.M.Muxitdinov, Bekmurodov A.Sh., G`ozibekov D.G., Karrieva Ya.K., Rasulov N.N., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T., Xotamov I.S.<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan o`rganilgan.

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish yo`nalishlari bo`yicha

2 Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика: пер. с англ. Со 2-го изд. -М.: «Дело ЛПД», 1995. -864 с.; К. Макконнелл, С. Бро. Экономикс: принципы, проблемы и политика. Пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. -М.: Республика, 1992. - 53 с.; Боди З., Кейн А., Маркус А. Принципы инвестиций в машиностроение, 4-е издание.: Пер. с англ. "Вильямс", 2013. — 984 с.; 5. Заичев С. А., Толстов А. Н., Грибанов Д. Д., Куранов А. Д. Метрология, стандартизация и сертификация в машиностроении; Академия - Москва, 2015. - 288 с. 6. Звягольский Ю. С., Солоненко В. Г., Схиртладзе А. Г. Технология производства режущего инструмента; Высшая школа - Москва, 2015. - 336 с., 14. Марков Н. Н., Осипов В. В., Шабалина М. Б. Нормирование точности в машиностроении; Высшая школа, Академия - Москва, 2015. - 336 с. 15. Маслов А. Р. Инstrumentальные системы машиностроительных производств; Машиностроение - Москва, 2016. - 336 с.16. Махова Н. С., Поболь О. Н., Семин М. И. Основы теории механизмов и машин; Владос - Москва, 2006. - 288 с. 17. Покровский Б. С. Механосборочные работы. Базовый уровень; Академия - Москва, 2014. - 950 с., 23. Схиртладзе А. Г., Иванов В. И., Кареев В. Н. Гидравлические и пневматические системы; Издательство МГТУ "Станкин", Янус-К - Москва, 2013. - 544 с. 24. Филонов И. П., Баршай И. Л. Инновации в технологиях машиностроения; Вышэйшая школа - Москва, 2015. - 112 с. 25. Холодкова А. Г. Общая технология машиностроения; Академия - Москва, 2013. - 224 с.

3 Вахабов А.В., Хажисабакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қулланма. / и.ф.д., профессор А.В. Вахабовининг умумий таҳрири остида. -Т.: «Молия», 2010. -328 б.; Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Камтаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. -Т.: Иқтисодиёт, 2010. - 166 б; Расулов Н.Н. Стимулирование привлечения иностранных инвестиции в экономику Узбекистана.-Т.: «ФАН», 2003.-165 с.; Гозибеков Д.Ф. Инвестицияларни молиялаштириши масалалари.-Т.: Мечнат, 2003 йил. 334 б.;

ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish magistrlik dissertatsiyasining maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqot oldiga qo`yilgan maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilangan:**

- O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o`rganish;
- mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyatini o`rganish;
- mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rnini o`rganish;
- respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyatidan samarali foydalanishni o`rganish;
- mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;
- “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlilini amalga oshirish;
- korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ta`sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirish;
- O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari bo`yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalg etish va ulardan foydalanish istiqbollari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalarini rivojlantirishni rag`batlantirish yo`llari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob`ekti va predmetining belgilanishi.** Tadqiqot ishining **ob`ekti** sifatida respublikamiz «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi va uning tarkibiga kiruvchi mashinasozlik korxonalari olindi.

**Tadqiqot predmeti** - bo`lib, O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining, xususan «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi va uning tarkibiga kiruvchi mashinasozlik korxonalari raqobatbardoshligini oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar xisoblanadi.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari.** Dissertatsiya ishining nazariy va uslubiy asoslari bo`lib O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ma`ruzalarida, mamlakatimiz etakchi iqtisodchi olimlari va mutaxassislari, xorijlik iqtisodchi olimlarining mutaxassislarning ushbu mavzuga oid ilmiy ishlari va tadqiqotlari, ular tomonidan ilgari surilgan fikr va mulohazalar xizmat qiladi. SHunindek, tahlillirni amalga oshirishda O`zbekiston Respublikasining qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarning me`yoriy xujjaligiga, yillik hisobot materiallariga asoslanildi.

Dissertatsiya ishining axborot bazasi sifatida O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining statistik to`plamlari, O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalarning yillik hisobotlaridan va vaqtli matbuot materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishning analiz va sintez, mushohada, iqtisodiy-statistik, induktsiya va deduktsiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, dinamik qatorlar, tizimli taxlil, takqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy tavsiyalar O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining, xususan “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish yo`nalishlari va mexanizmlarini takomillashtirishga yordam berishi mumkin.

Tadqiqot natijasida olingan nazariy va amaliy natijalardan magistratura ta`lim bosqichining “Iqtisodiyot (real sektor)” mutaxassisligi o`quv rejasiga

kiritilgan “Industrial iqtisodiyoti” va “Real sektorda investitsion va innovatsion faoliyat” fanlarini o`qitishda foydalanish mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:**

- O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o`rganildi;
- mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyatini o`rganildi;
- mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rnini o`rganildi;
- respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyatidan samarali foydalanishni o`rganildi;
- mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlili amalga oshirildi;
- “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlili amalga oshirildi;
- korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ta`sir etuvchi omillar tahlili amalga oshirildi;
- O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari bo`yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalg etish va ularidan foydalanish istiqbollari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalarni rivojlantirishni rag`batlantirish yo`llari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi.** Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi kirish, asosiy qismida uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbliji, mavzuning o`rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob`ekti va predmeti,

dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati hamda ilmiy yangiliklari, shuningdek, ishning tarkibiy tuzilishi yoritilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishning birinchi bobi “O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlanib unda mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati, mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rni, Respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy asoslari tadqiq etilgan va muayyan bir tizimga keltirilgan.

Ikkinchi bob “Mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlili” deb nomlangan va unda “O`zelteksanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlili, korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ta`sir etuvchi omillar tahlili amalgalashirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari” deb nomlanadi va unda mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish istiqbollari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalarini rivojlantirishni rag`batlantirish yo`llari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishning xulosa qismida tadqiqot natijasida olingan asosiy xulosalar va tavsiyalar keltirilgan.

## **I Bob. O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari**

### **1.1. Mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati**

Mashinasozlik majmuasi-iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste'mol buyumlari bilan ta'minlovchi sanoat tarmog'i uyg'unligidir.

Mashinasozlik majmuasi – iqtisodiyot tarmoqlari uchun mehnat qurollari, shuningdek, iste'mol buyumlari va mudofaa ahmiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat sohalari majmui. Bundan tashqari, mashinasozlik va metallga ishlov berish, metall buyumlar, metall konstruktsiyalar ishlab chiqarish hamda mashina va asbob uskunalarni tuzatish tarmoqlarining tarkibiy qismini ham tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi iqtisodiyotning hamma sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mashina va asbob uskunalar bilan ta'minlashdan iborat. Majmua metallga ishlov berish sohasi bilan birga o'z tarkibiga 200dan ortiq ishlab chiqarish tarmoqlari va tarmoqchalarini jamlaydi. Uning faoliyatida nafaqat tarmoq ichida, balki tarmoqlararo va mintaqalararo ixtisoslashuv hamda kooperatsiya kabi ishlab chiqarish shakllari yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ixtisoslashuv jarayonining ta'sirida ehtiyyot qismlar, agregatlar, butlovchi qismlar ishlab chiqarish turli davlatlar, mintaqalarda amalga oshirilib, ularni yig'ish jarayoni ma'lum bir asosan iqtisodi rivojlangan davlat hududida yuz beradi. Odatda ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatidan kelib chiqqan holda ixtisoslashuvning ma'lum turi (qism (detal'), texnologik yoki yarim mahsulot (polufabrikat)) tanlanadi. Mashinasozlik korxonalarining ixtisoslashuv holati va hududiy mehnat taqsimoti ma'lum sohaga ixtisoslashgan sanoat markazlari va rayonlarining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Ularning yuzaga kelishida bundan tashqari faoliyat doirasi ko'p sonli davlatlar hududini qamrab olgan trans milliy kompaniyalarning ham ta'siri katta.

Mashinasozlik mamlakat iqtisodiyotining ustuvor majmuasi hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotning hech bir tarmog'i mashinalar bilan ta'minlanmay turib rivojlanolmaydi. Hozirgi zamon mashinasini tayyorlash uchun ko'p miqdorda

metal, plastmassa, bo'yoqlar, rezina gazlama, yog'och- taxta kerak bo'ladi. Mashinalar minglab detallardan tayyorlanadi. Bu qadar xilma-xil detallarni bittagina zavodda yasash noqulay va samarasizdir. Shu sababli mashinasozlikda detallar yasashga ixtisoslashish, ya'ni tayyor maxsulotning ayrim detallari va qismlarini yasash, shuningdek, predmetlar yasashga ixtisoslashish, ya'ni avtomobil, traktor, dastgoh kabi tayyor mahsuloti shlab chiqarish keng rivojlangan.

Binobarin, mashinalar uchun ayrim detallarni ishlab chiqaruvchi ko'pdan ko'p mashinasozlik zavodlari bir-birlari bilan, shuningdek, metal, plastmassa, rezina va hokazolarni yetkazib beruvchi (boshqa tarmoq) korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqalari bo'lishini talab qiladi. Ammo bunday ishlab chiqarishni transportsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda qulay transport magistrallarining mavjudligi albatta hisobga olinadi.

Mashinasozlik buyumlari murakkab dastgohlar vositasida, yuqori malakali mehnat evaziga yaraladi. O'rta hisobda har bir mashinaning tannarxi unga sarflangan xomashyo-metall tannarxidan yuzlab marta ortiq bo'ladi. Mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda malakali ishchi va ilmiy- texnik mutaxassislar yetarli bo'lishi shart.

Mashinasozlikning turli tarmoqlari bir xil miqdorda metall ishlatmaydi. Agar bir dona mashinani yasash uchun ko'p metal (yokiboshqa material ko'p) kerak bo'lsa, bunday mashinasozlikni ko'p metal yoki ko'p material talab qiluvchi mashinasozlik deyiladi. Masalan, kon va metallurgiya asbob- uskunalari, temir yo'l vagonlarini ishlab chiqarish bunga misol bo'ladi.

Shu sababli mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchining yaqinligi va metallurgiya bazasi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, sarfqilinadigan material vamalakalimehnatmiqdori, shuningdek, xomashyo hamda tayyor mashinalarni tashish sharoiti mashinasozlik zavodlarini: a) transport magistrallari; b) iste'molchilar ; d) malakali kadrlar; e) yirik metallurgiya korxonalari mavjud yerlarda joylashtirish tamoyillarini belgilab beradi.

Majmua tarmoqlarini ularning paydo bo'lgan davrlariga ko'ra (eski, yangi, zamonaviy), ulardan foydalanish holatiga ko'ra (umumiyligi, transport mashinasozligi, elektronika va elektrotexnika, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, yo'l qurilish mashinasozligi, asbobsozlik), texnologik va hududiy joylashuv xususiyatlari ko'ra (metall ko'p talab qiluvchi, ishchi kuchi talab etuvchi, fantalab mashinasozlik sohalari) guruhlashtirish mumkin.

Mashinasozlik majmuasi korxonalarining hududiy joylashuvida bir qator omillarning ta'siri mavjud. Ko'pgina tarmoqlarda bo'lgani kabi mehnat resursi omili korxonalar joylashuvida ahamiyatli hisoblanadi. Bu holatning yuzaga kelishida ba'zi tarmoq sohalarining ishchi kuchini ko'p talab etishi, ularning malakaviy xususiyati (ayniqsa asbobsozlik, elektronika, elektrotexnika, aviatsiya, aerokosmik sohalarda), maxsus ilmiy tadqiqot muassasalari va laboratoriyalarining mavjudlik holatlari kabilarta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, fan texnika taraqqiyoti omili ham kuchli ta'sirga ega bo'lib, uning natijasida tarmoq ichida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi, samaradorlikning ortishi va ilmiy markazlar bilan integratsiyaning kuchayishga olib keladi.

FTI davrida jahon mashinasozligi fantalab tarmoqlardan biriga aylandi. Natijada, tarmoqning zamonaviy sohalari tez rivojiana boshladi. Shu bilan birga transport (infratizimning rivojlanganlik holati), iste'mol (talab va iste'mol bozori xususiyatlari), xom ashyo (og'ir mashinasozlik korxonalarining qora metallurgiya markazlariga yaqinligi) omillari ta'siri ham mashinasozlik korxonalarining hududiy joylashuvida e'tiborga olinadi.

Jahon mashinasozligida ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatidan kelib chiqib quyidagi tarmoqlar ajratiladi:

1. Stanoksozlik – mashinasozlikning ushbu tarmog'ida metall va yog'ochga qayta ishlov beruvchi stanoklar, avtomatik va yarim avtomatik ishlab chiqarish liniyalari, metallurgiya tarmoqlarida foydalilaniladigan turli jihozlar ishlab chiqariladi. Bu turdagи mahsulotlar ishlab chiqarish darjasи iqtisodi rivojlangan davlatlarda yuqori. Jahon stanoksozligi peshqadamlari bo'lib Yaponiya, GFR, Italiya, Xitoy, Tayvan', AQSH kabilar hisoblanadi. Uchta davlatda (Yaponiya,

GFR, AQSH) ishlab chiqariladigan stanok va turli asbob uskunalarining 50% ni beradi. Mintaqalar ichida G'arbiy Evropa etakchilik qiladi.

Sanoat robotlarining deyarli yarmi Yaponiyada ishlab chiqiladi. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, GFR, Italiya, Frantsiya kabi davlatlar ham sezilarli salmoqqa ega. Bu sohaning asosiy xususiyati uning asosan ishchi kuchi bahosi nisbatan qimmat bo'lgan rivojlangan davlatlarda rivojlantirilganligidadir.

2. Kemasozlik – transport mashinasozligining eski, lekin shu bilan birga eng muhim sohalaridan biri. Soha mahsulotlari dengiz transportida xalqaro yuklarni tashishda katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar ko'p turda bo'lib, ular orasida yuk tankerlari, yo'lovchi laynerlari, baliq konservalari ishlab chiqaruvchi yirik kemalar, paromlar va dengiz burg'ulash platformalari salmoq jihatdan ajralib turadi. Yiliga 1500 donadan ortiq turli ko'rinishdagi kemalar ishlab chiqariladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy jahon kemasozligi etakchilari hisoblanadi. Mintaqalar bo'yicha Osiyo oldingi o'rinda turadi. Ushbu mintaqaga barcha ishlab chiqariladigan kemalarning 80%ni beradi.

3. Avtomobilsozlik – mashinasozlik majmuasining eng muhim tarmog'i hisoblanib, jahon xo'jaligida ta'sir doirasi jihatidan neft' sanoatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mazkur tarmoqqa 1886 yil nemis injeneri Karl Bents tomonidan asos solingan.

Avtomobilsozlikda mahsulot ishlab chiqarishda ko'pgina sanoat tarmoqlari mahsulotlaridan foydalilanadi. Masalan, qora va rangli metallurgiyada ishlab chiqarilgan metallar (po'lat, alyuminiy va boshqalar), kimyo sanoatining mahsuloti hisoblangan tabiiy, sintetik kauchuk, qurilish materiallar sanoatida tayrlangan oyna va boshqalar. Avtomobilsozlik o'z navbatida boshqa tarmoqlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi (masalan, neft sanoati).

Jahon avtomobilsozligining hududiy joylashuvida so'nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni va TMKlar faoliyatini kuchayishi katta ta'sir etmoqda. "Djeneral motors", "Toyota", "Ford motor", "Fol'ksvagen", "Daymler-Kraysler" kabi jahoning yirik TMKlari yillik ishlab chiqariladigan avtomobilarning 80%ga yaqinini beradi. Tarmoq ishlab chiqaradigan

mahsulotlarning 70% engil avtomobilarga, qolgan qismi esa engil va og'ir yuk tashuvchi maninalarga to'g'ri keladi. Engil avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Yaponiya, GFR, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi davlatlar katta salmoqqa ega. Engil yuk mashinalari AQSH, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Meksika, og'ir yuk mashinalari Yaponiya, Xitoy, AQSH, Hindiston, GFR kabi davlatlarda ko'p ishlab chiqariladi.

4. Aviaraketa va kosmik sanoati – mashinasozlikning zamonaviy tarmoqlaridan biri bo'lib, fantalabligi va ko'p mablag' talab etishi bilan ajralib turadi. 20 davlatga qarashli 80 ta firma mazkur tarmoq tarkibida faoliyat olib borib, samolyot va vertolyotsozlik, raketalar, uchuvchi kosmik apparatlar va ularga dvigatellar ishlab chiqarish, avivtsiya asbob-uskunalarini tayyorlash yo'nalishlarida mahsulot ishlab chiqaradi. Ko'p mablag' talab etishi sababli ushbu tarmoq asosan iqtisodi yuqori darajada rivojlangan davlatlarda tarkib topgan.

Aviaraketa va kosmik sanoati korxonalarini asosan ilmiy-tadqiqot muassasalariga ega bo'lgan yirik shaharlar va aglomeratsiyalar yaqinida joylashtiriladi. Bundan tashqari, ularning hududiy joylashuvida mahsulotga bo'lgan talab hamda harbiy-strategik qarashlar ham e'tiborga olinadi. Tarmoq ichida faoliyat olib boruvchi firmalar soni va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar hajmiga ko'ra AQSH etakchi hisoblanadi. TMKlar orasida "Boing" (AQSH), "EADS" (Frantsiya), "Lokxit-Martin" (AQSH) kabilar oldingi o'rinnlarda turadi. Ishlab chiqariladigan asosiy mahsulot turli ko'rinishdagi samolyotlar bo'lib, so'nggi yillarda ularga bo'lgan talab ortib bormoqda. AQSH, Rossiya, Frantsiya kabi davlatlar yo'lovchi tashuvchi samolyotlar ishlab chiqarishda peshqadam bo'lsa, hvrbiy samolyotlar ishlab chiqarishda AQSH va Rossiyaga tenglasha oladigan davlatlar yo'q.

5. Elektronika va elektrotexnika – ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarixiga ko'ra avtomobilsozlik bilan tenglasha oladigan mashinasozlik majmuasi tarmog'i. Alovida tarmoq sifatida XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida shakllangan. O'sha davrda tarmoq eng ilg'or va eng fantalab sanoat

tarmog'i sifatida e'tirof etilgan. Keyinchalik uning tarkibida hozirda deyarli mustaqil tarmoqqa aylanib borayotgan elektronika sohasi ham yuzaga keldi.

Elektrotexnika sanoati ishlab chiqariladigan mahsulotlar xususiyatiga ko'ra ikki sohaga ajraladi. Birinchisi, sanoat tarmoqlari uchun mo'ljallangan qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bunga elektroenergetika sanoati uchun generatorlar, kabellar, transformatorlar; metallurgiya sanoati uchun elektrosvarkalar, metall eritish uchun elektr pechlar ishlab chiqarishni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu soha ko'p metall talab etishi bilan ajralib turadi (mahsulot ishlab chiqarishda ko'p miqdorda rangli metallar va po'latdan foydalaniladi).

Ikkinchisi, xo'jalikda keng foydalaniladigan arzon maishiy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ular elektrolampa, akkumulyator, batareyka kabi yoritish uchun ishlatiladigan mahsulotlar, muzlatkich, changyutkich, kir yuvish mashinalari kabi maishiy xizmat buyumlari tayyorlab beradi. Birinchi sohadan farqli ravishda keng iste'mol bozoriga ega bo'lib, mahsulotlar ishlab chiqarishda malakali mutaxassislar talab etilmaydi.

Maishiy elektrotexnika buyumlari ishlab chiqarish XIX asrning oxirlarida radioning kashf etilishi bilan boshlangan bo'lib, radiopriyomniklar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, Malayziya, Meksika, Yaponiya, AQSH, televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha esa Yaponiya, Malayziya, Koreya Respublikasi, AQSH, Xitoy kabi davlatlar etakchilik qiladilar.

Elektron sanoat tarkibida axborotni qayta ishlovchi elektron vositalar ishlab chiqarish (EHM) va aloqa vositalari ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan. AQSH, Yaponiya, G'arbiy Evropa davlatlari bu tarmoqda asosiy mahsulot tayyorlab beruvchi davlatlar hisoblanadi.

Mashinasozlik majmuasi tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha rivojlanayotgan davlatlar ham o'z o'rniiga ega bo'lishiga qaramay, umumiyligi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra AQSH, Yaponiya, GFR kabi rivojlangan davlatlar oldingi o'rnlarda turadi.

O'zbekistonda mashinasozlik majmuasi korxonalari XX asr boshlarida tashkil etilib, asosan qishloq xo'jaligi uchun mashinalar, ehtiyoj qismlar ishlab chiqarila boshlandi. Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin qishloq xo'jaligi mashinasozligi bilan birga, to'qimachilik, kimyo, qurilish kabi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun jihozlar va asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohalari ham rivojlandi.

Hozirda tarmoqning 15 turiga mansub 100 dan ortiq yirik korxonalar faoliyat olib bormoqda. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan sohalardan tashqari mustaqillik yillarida avtomobilsozlik, radioelektronika kabi sohalar ham tez su'ratlar bilan rivojlanib bormoqda. Toshkent shahri va viloyati, Andijon hamda Samarqand viloyatlari hududida respublikamizning asosiy mashinasozlik markazlari joylashgan.

O'zbekistonda mashinasozlik majmuining rivojlanish bosqichlari. Mashinasozlik og'r sanoatning eng yirik va yetakchi tarmog'idir. Uning ahamiyati, avvalo, hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini xalq xo'jaliginining barcha tarmoqlarida joriy qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtiris va avtomatlashtirish, maxsulot sifatini yaxshilash hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakat va viloyatlar iqtisodiyotining umumiyligi taraqqiyot darajasi mashinasozlikning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari 20-asr boshlarida vujudga keldi. 20-asr boshida O'zbekiston metalga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik remont ustaxonalaridan iborat edi. Ularda asosan temir yo'l, paxta tozalash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi. Yalpi sanoat maxsulot umumiy xajmidan og'ir sanoat va metalga ishlov berish tarmog'inining hissasi 1,3 %ni tashkil etgan. 1900 yilda Toshkentda tashkil etilgan metalga ishlov beruvchi bosh temiryo'l ustaxonalari shu davrning yirik korxonalaridan edi.

O'zbekiston sharoitida mashinasozlik sanoatining rivojlanishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, mashinasozlik malakali ish kuchini ko'p talab

qilganidan uni aholisi va mehnat resuslari yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan Respublikamizda rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

Mashinasozlik sanoati O'zbekistonda asosan Sovet hokimiyati yillarida barpo etildi. Oktyabr' to'ntarilishidan avval O'zbekistonning hozirgi hududida mashinasozlik va metallsozlik yettita kichik, yarim kustar holidagi ustaxonalardan iborat bo'lib, uninhg yalpi sanoat mahsulotidagi salmog'i 1913 yilda 1 % ni tashkil etgan edi. Eng katta sanoat korxonasi temiryo'l transporti mashina va uskunalarini ta'mirlash bilan shug'ullanardi.

Sovet hokimiyati yillarida respublikada mashinasozlik sanoati yuqori sur'atlar bilan rivojlantirildi. Masalan, 1940-1975 yillar orasida O'zbekistonda sanoat yalpi mahsuloti 13 marta ortgan bo'lsa, mashinasozlik sanoatida 587 marta o'sdi. O'ninchi besh yillikda (1976-1980) ham mashinasozlik ancha yuqori sura'tlar bilan rivojlantirildi. Butum sanoat mahsuloti ishlib chiqarish 35-38 % o'sgani holda, mashinasozlik mahsuloti 1.5 marta ko'paydi. 1980-1989 yillarda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 46 % va 65 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston mashinasozligi asosan mahalliy ehtiyojlarni qondirish uchunzarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish vazifasini bajardi va mintaqal ahamiyatiga ega bo'lgan darajada rivojlandi. Ma'lumki, O'zbekistonga va boshqa paxtakor Respublikalarga bu davrda qishloq xo'jaligi, avvalo paxtachilik uchun mashinalar zarur edi. Shuning uchun ham bu davrda qurilgan mashinasozlik korxonalari asosan qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqaruvchi, ularni ta'mirlovchi, shuningdek paxtani qayta ishlovchi sanoat uchun uskunalar ishlab beruvchi korxonalar edi. O'zbekiston mashinasozliginig dastlabki yirik korxonasi Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Toshken tamirlash-mexanik zavodi, eskvator -ta'mirlash zavodi (hozirgi ekskvator zavodi), Samarqanddagi qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlovchi "Dehqon" zavodi. Andijondagi paxta tozalash va to'qimachilik sanoatlari uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi "Kommunar" zavodi va boshqa korxonalar qurilgan edi. Natijada O'zbekiston mashinasozligi sobiq Ittifoqdagi paxtakor Respublikalarni mashinalar bilan ta'minlay boshladi.

Mashinasozlikning turli sohalarga mansub bu korxonalar O'zbekiston mashinasozlik sanoatining tarkibi va ixtisosiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1941 yillarida respublika mashinasozligi asosan front ehtiyojlarini ta'minlab turdi.

O'zbekiston mashinasozligi ko'p tarmoqli sohaga aylandi. Bu davda respublikaning sobiq ittifoq miqqosidagi asosiy ixtisos sohasi-paxtachilik majmuyiga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmoqlari ko'proq taraqqiy etdi. Shuningdek, elektrotexnika, asbobsozlik, yo'l qurilishi, sanoat tarmoqlari uchun uskunalar ishlab chiqarish tez rivojlandi va O'zbekiston Mashinasozligining salmoqli sohalarga aylandi. Hozirgi Respublikada ilmiy ishlab chiqarish tez rivojlandi va O'zbekiston mashinasozligininig salmoqli sohalarga aylandi. Hozir Respublikada ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari bilan birga 276 ta yirik mashinasozlik va metallsozlik korxonalari ishlab turibdi. Bu korxonalarda O'zbekiston sanoat ishchilarining qismi ishlaydi.

Qishloq xo'jalik mashinasozligida ayniqsa paxtachilik majmuiga kiruvchi mashinasozlik tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Paxtachilikda ishlatiladigan mashinalarning ko'pchiligi O'zbekistonda ishlab chiqarilayotganligi sababli uning mashinasozlik korxonalari MDHning barcha paxtakor mamlakatlarini xima-xil mashinalar bilan ta'minlab turadi.

Paxtachilik majmui bilan bog'liq mashinasozlikning yo'naliшlaridan biri to'qimachilik mashinalari va paxta tozalash sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarishdir. Mashinasozlikning bu yo'naliшi ancha taraqqiy etgan. Paxta tozalash sanoati uchun zarur uskunalar ishlab chiqaruvchi Toshkent mashinasozlik, Andijondagi "Kommunar", Samarqand paxtachilik mashinasozligi, Olmos (Namangan viloyati) paxta tozalash uskunalari uchun qismlar ishlab chiqaruvchi zavodlari va bu soha bo'yicha davlat kostruktorlik ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ishlab chiqarish birlashmasiga uyushgan. Birlashma MDH mamlakatlaridagi paxta tozalash zavodlarini uskunalar bilan ta'minlaydi. To'qimachilik sanoati uchun mashinalar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham O'zbekiston to'qimachilik mashinasozligi birlashmasini tashkil qilgan. Bu

korxonalar to'qimachilik mashinalarni lohiyalaydi, ishlab chiqaradi va istemolchilarga etkazib beradi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining bundan keyin ham tez rivojlanishi munosibati bilan mashinasozlikning bu yo'nalishini hozirgi zamon ilg'or texnologiyasi asosida yanada rivojlantirish zaruriyati sezilmoqda. Jumladan, keljakda Namangan, Buxoro, Qashqadaryo, Sirdayo viloyatlarda to'qimachilik mashinasozligi bilan bog'liq korxonalar qurish, Qo'qon zavodining ixtisosini bir oz o'zgartirib, unda ipak yiguruv mashinalari ishlab chiqarishni tashkil etish ko'zda tutiladi.

Umuman, mashinasozlik bu yo'nalishining asosiy vazifasi to'qimachilik va paxta tozalash sanoati uchun mashina hamda uskunalar ishlab chiqarish hajmini va ayniqsa sifatini oshira boorish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashdir.

O'zbekiston mashinasozligining yana bir muhim tarmog'i elekrotexnika sanatidir. Bu tarmoq Vatan urushi yillarida vujudga kelib, respublika mashinasozligining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu tarmoqni respublikamiz mashinasozlikdagi salmog'i (20 %) ancha katta. Bu tarmoq korxonalari transformatorlar, elektr stantsiyalar va podstantsiyalar uchun shchit, panellar, zamonaviy murakkab kabellar, elektr asbob-uskunalari, umuman 200 turdagи mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bu mahsulotlarning ayrim turlarini MDH da etakchi o'rinni egallaydi, ular chet mamlakatlarga ham chiqarilladi.

Elektrotexnika mashinasozlikning yirik korxonalari Toshkent elekrotexnika va kabel zavodlari, Chirchiq va Namangan transformator zavodlari, Andijon "Elektr apparat" va "Elektr dvigatel", Qo'qon elektr mashinasozligi zavodlari va boshqalardir.

Respublika elekrotexnika mashinasozligi korxonalari ikkita ishlab chiqarish -texnika birlashmasi tarkibiga kiradi. O'zbekistonda elekrotexnika sanoati keljakda bundan ham tez rivoj topadi. U sanoatning sermehnat mehnat tarmog'i bo'lganligidan respublikamiz sharoitida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Mashinasozlik tarmoqlari orasida eng yosh va hozircha kam taraqqiy etgan asbobsozlik katta istiqbollarga ega. Gap shundaki, bu tarmoq ko'p mehnat resurslarni jalgan qiladi hamda respublikaning asosiy ixtisos sohasi bo'lgan paxtachilik majmui tarkibida rivojlantrilladi. Chunki hozircha O'zbekistonning paxta, ipak va kanopni qayta ishlash korxonalari, shuningdek to'qimachilik korxonalari texnologik jarayonlarni tashkil qilish, xom ashyo va mahsulot sifatini aniqlash uchun mo'ljallangan aspoblar bilan etarli ta'minlangan. Mavjud "Paxtachilik asboblari" zavodi asosan paxta tozalash zavodlari uchun, paxta navini va tolasi sifatini aniqlash uchun asboblар ishlab chiqaradi.


O'zbekistonda instrumental asboblар ishlab chiqarish ham tashkil etilgan. Bu yo'naliш mahsulotlari ham hamdo'stlikning ko'pgina rayonlarga jo'natiladi. Bu yo'naliшdagi yirik korxonalari Toshkent instrumental va abraziv zavodlaridir.

Respublikada og'ir mashinasozlik sanoatiga mansub bir qator korxonalar mavjud. Toshkentdagи "Ko'targich", "Kompressor", Chirchiqdagi O'zbekiston kimyo mashinasozligi, Namangandagi mashinasozlik zavodlari kimyo va neftni qayta ishlash sanoatlari uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaradi. Shuningdek, Toskent eskvator, teplovoz tuzatish zavodi, avtomobil tuzatish zavodlari, Samarqand liftsozlik, xolodil'nik, Toshkent va Farg'ona gaz aparatlari zavodlari va boshqa mashinasozlik hamda metalsozlik korxonalari ham ishlab turibdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda mazkur majmuning ilmiy-texnika taraqqiyoti hosilasi bo'lgan aniq va murakkab mashinasozligi sohasi tobora rivojlanmoqda. Muhim shundaki, bu yo'naliш istiqbolihamdir. Toshkentdagи elektrotexnika, "Mikond", "Zenit" zavodlari murakkab elektrotexnika, elektronika, telemexanika, vositalari ishlab chiqargan. So'ngi yillarda ishga tushirilgan "Artel" birlashmasi eng takominlashgan elektron-hisoblash majmualari ishlab chiqarmoqda.

Mashinasozlik tarmoqlarining bundan keying taraqqiyoti asosan xorijiy mamlakatlar hamkorligida va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi asosida olib boriladi. Hozirdayoq shu yo'l bilan qurilgan ayrim korxonalar, jumladan, Toshkentdagи birmarta ishlatiladigan shiprislar (Ispaniya hamkorligida), o'quv

kompyuterlari (Bolgariya hamkorligida), telivizior va vidiomagnitofon (Xitoy va Janubiy Koreya hamkorlikda) va boshqalar mahsulot berila boshladi




1-rasm. **Mashinasozlik majmuasi tarmoqlari<sup>4</sup>**

Respublikaning zamonaviy mashinasozlik sanoati ma`lum ilmiy-tehnik quvvatlar bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtida 14 ta davlat konstrukturlik va loyixalash-tehnologik byurolarida paxtachilik va paxta tozalash sanoati, bog`dorchilik, pillachilik, irrigatsiya va xalq xo`jaligining boshqa tarmoqlarini mehanizatsiyalashtirish uchun yangi mashinalar, asboblar, apparatlar ishlab

<sup>4</sup> Foydalaniylgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan islab chiqilgan

chiqarish ustida ish olib borilmoqda. Yana shu narsani ta`kidlash joizki mashinasozlikni rivojlanishi O`zbekiston uchun kata ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ma`lumki aksariyat mashinasozlik tarmoqlari juda sermehnat bo`lib, O`zbekiston singari mehnat resurslari tez ko`payib borayotgan davlatlarda aholini band bo`lishida muhim o`rin tutadi. Ayniqsa radioteknika mahsulotlari ishlab chiqarish, kompyuterlar, televizorlar ishlab chiqarish, elektron hisoblash mashinalari va boshqalar shular jumlasidandir (2-rasm). Mashinasozlik mamlakat iqtisodiyotining ustuvor majmuasi hisoblanadi. Chunki iqtisodi-yotning hech bir tarmog'i mashinalar bilan ta'minlanmay turib rivojlanmaydi.



**2-rasm. O`zbekiston mashinasozligi korxonalarining joylashishiga ta'sir korsatadigan omillar.<sup>5</sup>**

<sup>5</sup> Foydalaniman adabiyotlar asosida muallif tomonidan islab chiqilgan

Mashinasozlik sanoati tarmoqlarini joylashish xususiyatlari. Mashinasozlik sanoati korxonalari ko`p mehnat, ko`p material, ko`p elektr energiya, ko`p fond talab qiluvchi xususiyatlariga ko`ra joylashadi. Undan tashqari O`zbekistonda mashinasozlik sanoatining rivojlanishi, joylanishi, tarkibining o`zgarishida urush davri va urushdan keyingi davr o`ziga hos bir bosqich bo`lib qoldi. Chunki II jaxon urushi davrida mamlakatimiz mashinasozligining rivojlanish sur`atlari va darajasi hamda ixtisosi butunlay o`zgaradi.Urush yillarida sobiq Ittifoqning g`arbiy rayonlaridagi qator mashinasozlik zavodlari evakuatsiya qilinib O`zbekiston hududida joylashtirildi. Keltirilgan zavodlar asosan yuqori malakali mehnat resurslari to`plangan va boshqa xil sanoat tarmoqlari joylashgan yirik shaharlarga joylashtirildi.

Ular asosan Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro va boshqa shunga o`xshash keltirilgan korxonalarini tezlik bilan ko`rib, ishga tushirib yuborish uchun qulay imkoniyatlarga ega bo`lgan shaharlarda to`plandi.Urush tugagach, evakuatsiya qilingan korxonalarining ayrimlari qaytadan ko`chirib ketildi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning assortimenti o`zgardi, shunga qaramay, bu davrda mashinasozlikda ro`y bergan o`zgarishlar tarmoqning urushdan keyingi taraqqiyotga o`z ijobiy ta`sirini ko`rsatdi.

Taxlillardan shu narsa ma`lumki traktorsozlik, qishloq xo`jalik mashinasozligi, to`qimachilik mashinasozligi, kimyo mashinasozligi tarmoqlari tayyorlov, qayta ishlov va yigiruv sehlari mavjud bo`lgan tulik siklli universal-kompleks korxonalarda ishlab chiqariladi.Ishlab chiqarishni tashkil qilishning bunday shakli yirik mashinasozlik markazlari doirasi chegaralangan, yuqori malakali kadrlar yetarli bo`lmagan rayonlarda yahshi samara beradi. Lekin hozirgi vaqtda ishlab chiqarishni bunday tashkil qilish shukunning talablariga javob bera olmayapti.Shu munosabat bilan yirik mashinasozlik korxonalarining filiallarini tashkil qilish va ularni kichik shaharlarda, rayon markazlarida, shahar tipidagi posyolkalarda va yirik qishloqlarda joylashtirish eng oqilona yo`llardan biri hisoblanadi (2-rasm).

Bunday sharoitda mashinasozlik korxonalari ayrim detallar ishlab chiqarishga yoki mahsulotlarning ayrim qismlarini ishlab chiqarishga va hokazolarga ixtisoslashadilar. Masalan, Asaka shahrida Janubiy Koreyaning DEU firmasi bilan hamkorlikda qurilgan avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonani misol keltirishimiz mumkin. Bu zavodning o`zida avtomobilning barcha qismlarini ishlab chiqarish mumkin emas, avtomobilning ayrim detallari va qismlarini O`zbekistondagi ko`pgina mashinasozlik zavodlari yetqazib beradi va bosh korxonada yig`ib tayyor mahsulot holida ishlab chiqarilmoqda. Mashinasozlik tarmoqlarining hududiy joylashishi.

Mashinasozlik sanoatini hududiy tashkil etish va uning samaradorligini oshirish xalq xo`jaligining ushbu tarmoq mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirishning eng muhim yo`llaridan biridir. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda mashinasozlik sanoati oldidagi eng muhim vazifalardan biri Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro-Navoiy, Quyi Amudaryo, Surxondaryo iqtisodiy rayonlarida yangi mashinasozlik tarmoqlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda chorvachilik, vinochilik, bog`dorchilik, sabzavotchilik uchun mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishdan iborat. Bu ishlarni amalga oshirish sanab o`tilgan iqtisodiy rayonlarda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda maxalliy aholidayan malakali mehnat resurslarini shakllantirish muammolarini hal qilar edi.

O`zbekistonning mustaqilligi sharoitida qolaversa bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida xalq xo`jaligining barcha jabxalarida vujudga kelgani singari mashinasozlik sanoati soxasida ham ma`lum imkoniyatlar yuzaga kelishi bilan bir qatorda bir qancha muammolar ham vujudga kelmoqda. Sobiq Ittifoq davrida respublikamizda tashkil etilgan qator mashinasozlik zavodlari sobiq “qardosh” respublikalardagi zavod va korxonalar bilan chambarchas bog`langan edi. Zavodlarimiz uchun zarur bo`lgan xom ashyo resurslari asosan o`sha respublikalardagi zavodlardan yoki xom ashyo bazalaridan keltirilar edi. Sobiq Ittifoqning tarqab ketishi, respublikalararo iqtisodiy aloqalarning keskin ravishda uzilib qolishi natijasida respublikamizdagи ayrim mashinasozlik zavodlarida ahvol tang holatga kelib qoldi.

## **1.2. Mashinasozlikda eksportga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati va uning respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o`rni**

Mamlakatda iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlat mustaqilligini mustahkamlash, jahon xo`jaligi tizimiga jadal kirib borishini ta`minlash sharoitida insonning jismoniy va ma`naviy salohiyatidan, uning aql-zakovatidan samarali foydalanish, ehtiyoj va manfaatlarni hisobga olish masalalari birinchi o`ringa chiqadi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishdan iborat o`z yo`limiz va dasturimizni muvoffaqiyatli amalga oshirish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish vazifasini hal etish bevosita inson, uning professional bilimlari, mas`uliyati, milliy ma`naviyati, tadbirkorligi, tashabbuskorligi va boshqa bir qancha fazilatlariga bog`liqdir.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan islohotlarning barchasi inson manfaatlariga qaratilganligi, ularning buguni va kelajagi uchun moddiy va madaniy, milliy-mafkuraviy poydevor yaratish, hamda uni mustahkamlash islohotlarning negizini tashkil qilmoqda. Bu o`rinda asosiy e`tibor inson omiliga, uning yaratuvchanlik qobiliyatiga, moddiy manfaatdorligiga qaratilishi lozimligi xalq xo`jaligining turli sohalarida o`z ahamiyatini ko`rsatmoqda. Bu birinchi navbatda insonlarga bog`liq. Bizning fikrimizcha har bir mamlakatning boyligi nafaqat qancha zahiralarga ega ekanligi bilan emas, balki shu mamlakat aholisining mehnatga layoqati va qobiliyati bilan o`lchanishi lozim.

Hozirgi kunda yuzlab korxonalar, xususiy firmalar, kichik biznes vakillari, fermer xo`jaliklari, qo`yingki, har bir fuqaro respublikamizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga o`z hissalarini qo`shib kelmoqdalar. Shuni ham ta`kidlash lozimki, zamonaviy bilimlarsiz, yangi texnika va texnologiyalarsiz bozor sharoitida muvoffaqiyatga erishish mumkin emas. Shunday ekan iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarishni tashkil qilish, jahon va ichki bozor kon`yunkturasini tadqiq qilish, talab va taklif munosabatlari, zamonaviy menejment va marketing bilan bog`liq bo`lgan bilimlarni puxta egallash bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Bozor munosabatlari har bir ishtirokchisida o`z iqtisodiy faoliyatini

baholash ko`nikmalarini hosil etish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan shartnomalar tuzish, hamkorlarni tanlash, xalqaro marketing tamoyillaridan o`z faoliyatlarida foydalanish, shular asosida qarorlar qabul qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishning qudratli omili sifatida maydonga chiqadi. Biz ilmiy ishimizda olib boradigan tadqiqotlar marketingli yondashuv asosida bo`lganligi tufayli eksport salohiyati, eksport ishlab chiqarishi, eksport imkoniyatlari, eksportga ixtisoslashuv kabi tushunchalarni har tomonlama ilmiy-uslubiy o`rganib, ularning milliy iqtisodiyotimizda tutgan o`rniga baho beramiz. Shu bilan birga, eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishning nazariy va amaliy mohiyatini ochish, hamda uning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o`rniga e`tibor qaratish nazarda tutiladi. Eksport salohiyati to`g`risida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda respublikamiz iqtisodchi olimlarining mulohazalariga e`tibor beraylik.

Taniqli iqtisodchi olimlar A.O`lmasov va N.To`xlievlar ta`kidlashicha «eksport salohiyati - chet elga tovar chiqarib sotish imkoniyati; korxonalar, tarmoqlar va ayrim bir mamlakatning xorijga tovar chiqarib, chet el bozorida raqobat qila bilish qobiliyatini, shuning hisobiga valyuta to`play olish, daromad olishini anglatadi»<sup>6</sup>. Shunday ekan, eksport salohiyati ishlab chiqarishning texnika va texnologiyasiga, ish kuchining professionallik darajasiga, mehnat va texnologiya intizomiga, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va jahon bozori talablariga moslasha olishiga bog`liq, chunki bularning barchasi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishning omillaridir. A.M.Alimovning eksport salohiyatiga bergen ta`rifi ham atroflicha bo`lib, to`liq mohiyatni ochib bergen deb o`ylaymiz, ya`ni: «Eksport salohiyati deganda, tashqi bozorda tovarlar sotish maqsadida ishlab chiqarish kuchlarining ma`lum bir qismini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish tushuniladi».

M.Boltabaev o`z ilmiy ishlarida eksport salohiyatiga quyidagicha ta`rif beradi: “Eksport salohiyati-kompleks ko`rsatkich bo`lib, u korxonaning xususiyatlarini va xarakteristikasini, shuningdek, uning mahsulotlarini sotish

<sup>6</sup> А.Ўлмасов, Н.Тўхлиев. Бозор иқтисодиёти. Т.: Комуслар боши таҳририяти. 1991, 126- бет.

mumkin bo`lgan bozorlarning xususiyatlarini hisobga oladi, uning tabiatidan kelib chiqqan holda potentsial sotuv bozoriga qo`yiladigan talablar ro`yxatini aks ettiradi”.<sup>7</sup> «Eksport salohiyati» tushunchasi ko`p holda «eksport ishlab chiqaruvi» bilan mos tushsada, ammo birinchisi mazmuni va mohiyati jihatdan kengdir. Chunki unda ishlab chiqarishning ohirgi bosqichi bilan bиргаликда oldingi jarayonlar ham, shu bilan birga nafaqat mavjud, balki eksportga mahsulot ishlab chiqarishning mumkin bo`lgan imkoniyatlari ham kiradi. Rossiya iqtisodchilaridan N.A.Cherkasov «eksport ishlab chiqaruvi», «eksport ixtisoslashuvi», «korxonaning eksportga ixtisoslashuv darajasi», «eksport tarmoqlari» kabi tushunchalarni o`zaro bir xil talqin qiladi . I.F.Zaytsev bu uchun «eksport ishlab chiqarishi», «eksport ishlab chiqarishini ixtisoslashuvi», «mamlakatning eksport tumanlari» kabi tushunchalarni ishlatadi. A.V.Engibarov «ishlab chiqarishning eksportlilik koeffitsienti va hokazolarni ishlatadi. Yuqorida nomlari keltirilgan iqtisodchi olimlar eksport salohiyatini xarakterlash yoki eksport ishlab chiqarishini ifodalash uchun u yoki bu terminlarni kiritish bilan chegaralanib, ularni miqdoriy va sifat jihatdan aniqlashga e`tibor bermaganlar. Bu o`rinda V.I.Filippovning olib borgan izlanishlari e`tiborga loyiqidir, chunki u eksport ishlab chiqarishini iqtisodiy kategoriya sifatida va uni takror ishlab chiqarish jarayoni, hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog`liqlikda qaraydi.

I. Xotamov fikricha, «eksportga mahsulot ishlab chiqarish» yoki shunga o`xshash tushunchalar eksport salohiyatining faqatgina tashqi tomonini ifodalaydi, uning moddiy substantsiysi, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi va xalqaro mehnat taqsimotidagi sifat va miqdoriy jihatlari chetda qoladi. Eksport salohiyati alohida ajralgan sektor bo`lmasdan, balki ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Shunday ekan, eksport salohiyati tarkibiga quyidagi asosiy elementlar mansubdir:

- eksportga mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi korxonalar, firmalar, tashkilotlar;

---

<sup>7</sup> Болтабаев М.Р. Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. Т.:«Фан», 2014. 60-65 б.

- tashqi savdoni amalga oshirishga ixtisoslashgan transport infrastrukturasi, maxsus banklar, lizing va sug`urta tashkilotlari, konsalting xizmati ko`rsatuvchi firmalar;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirishga ko`maklashuvchi vositachilik tashkilotlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy va boshqaruv tuzulmasi.

Eksport salohiyatining iqtisodiy muammolarini tadqiq qilish har tomonlama kompleks yondashuvni, hamda ilmiy asoslangan uslubiy tahlilni taqozo qiladi. Eksportga mahsulot ishlab chiqarishning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nazariy va amaliy mohiyatini o`rganish, ko`p jihatdan uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`rnini belgilash imkonini beradi. Bu o`rinda so`z eksportga mahsulot ishlab chiqarish kontseptsiyasining uslubiy jihatni to`g`risida bo`lib, u ijtimoiy ishlab chiqarishning va xalqaro ixtisoslashuvning moddiy ajralmas bo`lagi sifatida nazarda tutiladi. Shunday ekan eksportga mahsulot ishlab chiqarish ikki jihatdan tahlil qilinadi:

- milliy ishlab chiqarish;
- jahon xo`jaligi tizimi.

Bunday uslubiy yondashuv eksportga mahsulot ishlab chiqarishni iqtisodiy kategoriya sifatida qarash imkoniyatini beradi va o`z navbatida unga sabab-oqibat, hamda o`zaro bog`liqlik aloqalari xos bo`ladi. Bizning fikrimizcha eksport salohiyatini yoki eksportga mahsulot ishlab chiqarishning mohiyati va ahamiyatini tahlil qilishning uslubiy tamoyillarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

- bu kategoriyalarning mohiyatini aniqlashda kompleks yondashuv, ya`ni ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti me`zonlari asosida ta`rif berish;
- eksport salohiyatini kengaytirish tashqi iqtisodiy aloqalarning moddiy asosi sifatida qaralishi;
- eksportga mahsulot ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuv, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyalashuvi, jahon xo`jalik aloqalarining integratsiyasi va chuqurlashuvining boshlang`ich asosi sifatida talqin qilish;

- eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni milliy va baynalminal ishlab chiqarishning ajralmas birligi sifatida qarash;

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o`zining mohiyatiga ko`ra va tadqiqot ob`ekti sifatida eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarish uslubiy jihatdan murakkab iqtisodiy kategoriya ekan. Bu jihatdan «eksport salohiyati», «eksport ishlab chiqaruvi», «eksportga ixtisoslashuv», «eksport tarmog`i», «eksport tovari» kabi tushunchalar ilmiy lug`at boyligimizga kirib kelganiga ko`p vaqt bo`lgani yo`q. Shu sababli ularni talqin qilishda turlicha yondashuvlar bo`lishi tabiiy. So`nggi 25 yil ichida xalqaro ixtisoslashuvda asosiy o`rinni mashinasozlik mahsulotlari egallab kelmoqda. Buning ob`ektiv sabablari bizning fikrimizcha quyidagilardan iborat:

- mashinasozlik tarmog`i mahsulotlarining konstruktiv xususiyatga egaligi, ya`ni mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar bir qancha qismlardan iborat bo`lib, ularning har birini ishlab chiqarish maxsus ixtisoslashuvni talab qiladi;

- mashinasozlik mahsulotlari miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega, ya`ni ishlab chiqariladigan mashinalar, traktorlar, kranlar, asbob-uskunalar va hokazolarning yuz minglab turi mavjud bo`lib, ular turli xil masshtabda ishlab chiqariladi. Shu jihatdan, hamda murakkab konstruktiv xususiyatiga ko`ra o`nlab mamlakatlar korxonalarida yaratilgan qismlar yig`iladi yoki mehnat kooperatsiyasi vujudga keladi;

- mashinasozlik mahsulotini ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan texnologik jarayon o`z xususiyatiga ega. Bunda bir-biriga o`xshash qismlar bir nechta korxona tomonidan, turli texnologik jarayonlarda tayyorlanishi mumkin, ammo ommaviy ixtisoslashuvga o`tishda ulardan eng samaralisi tanlanadi. Tarmoqlarning xalqaro ixtisoslashganligini aniqlash uchun darsliklarda keltirilgan quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$E_t$$

$$K_t = \frac{E_t}{E_j}, \text{ bunda}$$

$$E_j$$

$K_t$  - tarmoqning eksportga ixtisoslashuvining nisbiy koeffitsienti;

$E_t$  - mamlakat eksportida tarmoq tovarlarining ulushi;

$E_j$  - jahon eksportida tovarning ulushi.

Yuqoridagi eksportga ixtisoslashuv koeffitsienti orqali ma`lum bir mamlakatning xalqaro ixtisoslashgan tovarlari va tarmoqlarini aniqlash imkonii tug`iladi.  $K_t \geq 1$  bo`lsa, tarmoq ma`lum tovarlar yoki tovarlar guruhi bo`yicha xalqaro ixtisoslashgan deyiladi, agar  $K_t < 1$  bo`lsa, tarmoqni xalqaro ixtisoslashgan deyishga asos kam bo`ladi.

Respublikamiz tashqi savdosida nafaqat miqdoriy o`zgarishlar yuz berib qolmasdan, balki tarkibiy o`zgarishlar ham amalga oshirildi. Asta sekinlik bilan eksport tovarlari tarkibida xom-ashyo emas tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda, shu bilan birga import tarkibi ham o`zgartirilib, asosiy e`tibor mashina va uskunalar, zarur xom-ashyolar keltirishga qaratilmoqda (1.1-rasm). Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko`p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta e`tibor berilmoqda. Yaqin Sharq va Janubiy-Shaqiy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinligi va chegaradoshligi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. Bu eksportga ixtisoslashgan qo`shma korxonalarini yaratish, tabiiy resurslardan foydalanish bo`yicha chegaradosh xo`jaliklarni tashkil qilish, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish negizida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi. Respublikamizning qadimiy «Buyuk Ipak Yo`li» da joylashganligi sababli Evroosiyo iqtisodiy va madaniy ko`prik vazifasini o`tashi mumkin. Ana shunday ko`prik doirasida tovarlar, texnologiyalar, sarmoyalalar, ishchi kuchi, madaniy qadriyatlarning harakat qilishi va ayriboshlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratilishi mumkin. Hozirgi kunda respublikamizda import o`rnini qoplash va eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni qo`llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo`nalishlarga jadalroq jalb qilish, ularga kafolat va imtiyozlar berish, litsenziya, «nau-xou»lar sotib olishda, kadrlarni tayyorlashda valyuta tushumlarini sarflashda erkinliklar berishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish ushbu sohada boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo sanoat korxonalarining boshqarish va iqtisodiy rag`batlantirish tizimini yaratishga ko`p jihatdan bog`liqdir. Jalon bozori tovarlarga, ularning sifatiga yuksak talab qo`yadi, raqobat kurashida engaolgan korxonagini o`z tovarini sota oladi. Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot va tahlil natijalariga asoslanib shunday xulosaga kelishimiz mumkin, respublikamizning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuviga etarli darajada tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, intellektual va infrastrukturaviy salohiyatga ega.

O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga jadal kirib borishi va eksport salohiyatini yanada rivojlantirishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- respublikaning eksport imkoniyatlaridan to`laroq foydalanishga sharoit yaratish, eksportga yo`naltirilgan milliy iqtisodning faoliyat ko`rsatishi samaradorligini yanada oshirish;
- mablag`larni eksportga mo`ljallangan, raqobatbardosh, fan sig`imi yuqori bo`lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatning ustuvor yo`nalishlarida jamlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini - ixtisoslashtirilgan savdo uylari, lizing, konsalting, franchayzing va sug`urta firmalarini; bank, transport, kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish;
- mahsulotlarni standartlash va sertifikatsiyalash xalqaro tizimiga jadallik bilan o`tishni ta`minlash;
- tarmoq ichida eksportga mahsulot ishlab chiqaruchi maxsus tsex yoki korxona tashkil qilish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta`minlashni yo`lga qo`yish;
- texnopark yoki texnopolislardan tashkil qilish asosida ilmiy tadqiqot va tajriba-loyiha ishlarini bevosita ishlab chiqarish bilan qo`shib olib borish;
- milliy litsenziyalash va patentlash tizimini bugunning talabi asosida tubdan qayta tashkil qilish;

- doimiy ravishda ichki va tashqi bozor kon`yunkturasi marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, xaridorlar ehtiyojiga mos keladigan tovarlar gammasini yaratish va hokazolar.

### **1.3. Respublikamiz mashinasozlik tarmog`i eksport salohiyatidan samarali foydalanish**

O`zbekiston Respublikasining jahon xo`jalik tizimida o`ziga xos o`rin egallashida, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, kishilar turmush darajasini yaxshilashda mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyotni barpo etish muhim o`rin egallaydi. Har qanday ijtimoiy iqtisodiy hodisani o`ganishda dastavval unga nazariy jihatdan yondashmoq maqsadga muvofiq. Bu muayyan soha bilan shug`ullanayotganda xatolikka yo`l qo`ymaslik uchun zarur. Amaliyat esa unga tegishli o`zgartirishlar va tuzatishlar kiritadi. Shu munosabat bilan mamlakat eksport salohiyatini tadqiq etishda dastlab unga nazariy jihatdan yondashmoq zarur.

Hozirgi kunda shu narsa ayonki, rivojlanayotgan davlatlar o`z oldilaridagi asosiy maqsad - kishilar turmush darajasini oshirishga faqat sanoatlashtirish orqali erishishlari mumkin. Unda tashqi savdo siyosati muhim o`ringa ega. Buning eng asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, ilmiy texnika taraqqiyotining ravojlanishi natijasida jahon xo`jalik tizimida globallashuv va xo`jalik faoliyatining baynalmilallahuvi jarayonlari kuchaymoqda, oqibatda mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari milliy xo`jalikning organik qismiga aylanmokda. Shunday bir sharoitda maqsadga muvofiq tashqi savdo siyosatini yuritish mamlakatda barqaror iqtisodiy o`sishning muhim omili hisoblanadi. Biroq tashqi iqtisodiy siyosatning qaysi shakli eng samarali va oqilona ekanligi to`g`risidagi masala eng munozarali masalalardandir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, tashqi savdo siyosatining ikki asosiy turi mavjud:

- birinchisi, iqtisodiyotni protektsionistik to`siqlar yordamida faol himoya qilishga qaratilgan import o`rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishga asoslangan tashqi savdo siyosati;

- ikkinchisi, ochiq iqtisodiyotga asoslangan eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni yoqlovchi tashqi savdo siyosati.

Garchi iqtisodiy fanlar A.Smit davridan boshlab tashqi iqtisodiy munosabatlarning erkinlashuvi tarafdori bo`lsa-da, amaliyotda mutlaq erkin savdo hech qachon bo`lmagan. Barcha mamlakatlar hukumatlari xalqaro tovar va xizmatlar oqimi yo`liga turli xil to`siqlar qo`yadilar. Proteksionizm siyosatining aniq shakllari xilma-xil va ular milliy darajada ikki va ko`p yoqlama bitimlar tuzish yo`li bilan amalga oshiriladi. Biroq, jahon xo`jalik tizimining hozirgi bosqichida kuchli protektsionistik siyosat yuritish deyarli mumkin emas. Iqtisodchilarda protektsionizmga nisbatan umuman salbiy munosabat paydo bo`lgan, biroq bir qator mamlakatlar ishbilarmon va siyosatchilari orasida uning tarafdorlari hali ham uchraydi. Ko`plab mamlakatlar hukumatlari tashqi savdo siyosatini belgilar ekanlar, bir tomondan, jahon bozorida milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirib eksport hajmini ko`paytirishga harakat qilsalar, ikkinchi tomondan ichki bozorda xorijiy tovarlarning raqobatbardoshligini pasaytirish uchun importni chegaralashga harakat qiladilar. Haqikatda hozirgi kunda ham ko`p asrlik dilemma - erkin savdoga asoslangan eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni yoqlovchi tashqi savdo siyosati yaxshimi yoki protektsionizmga asoslangan import o`rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishga qaratilgan siyosat ma`qulmi - hal etilgani yo`q. SHu munosabat bilan ushbu ikki tushunchaning mohiyatini o`rganish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bo`yicha jahon tajribasini umumlashtirish butungi kundagi eng asosiy masalalardandir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu muammoga bag`ishlangan ko`plab maqolalar, ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borilmokda. Ana shunday tadqiqotlarning birida o`zbekistonlik iqtisodchilar E. Trushin va B. Ergashevlar import o`rnini bosishga qaratilgan siyosatni quyidagicha ta`riflaydilar: «Import o`rnini bosish jadal sanoatlashtirish va milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash


maqsadida amalga oshiriladi». Yuqoridagi ta`riflarni umumlashtirgan holda shuni ta`kidlash mumkinki, import o`rnini bosishga qaratilgan tashqi savdo siyosati-iqtisodiyotni yuqori sur`atlarda sanoatlashtirish, ichki bozorni xorijiy ishlab chiqaruvchilardan himoyalash va mahalliy sanoat tarmoqlarining yuqori raqobatli mahsulotlar ishlab chiqarishini ta`minlash uchun mamlakat hukumati tomonidan olib boriladigan siyosatdir. Garchi ushbu ta`riflar jozibador va maqsadga muvofiq tuyulsa-da, uni amalga oshirish qo`yilgan maqsadga erishishni ta`minlamaydi.

Import o`rnini bosish strategiyasini amalga oshirish bir qator nazariy xulosalar bilan asoslanadi. SHulardan eng ko`p uchraydiganlarini ko`rib chiqamiz. Anna Kryuger ushbu muammoni tadqiq qilar ekan, rivojlanayotgan mamlakatlarda import o`rnini bosishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda quyidagi holatlar sabab sifatida ko`rsatilishini ta`kidlagan: Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlardan ishlab chiqarish tarkibi xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqarishga mo`ljallangan. Agar rivojlanayotgan mamlakatlardan erkin savdo siyosatiga amal qilsalar, ularning nisbiy afzalliklari xom ashyo tovarlari ishlab chiqarish doirasida qolib ketadi. Bu esa milliy texnologiyalar va inson kapitalining rivojlanishiga yo`l qo`ymaydi. Ikkinchidan, xom ashyo tovarlariga bo`lgan talab importyor mamlakatlarda daromad bo`yicha ham, jahon narxlari bo`yicha ham past moslashuvchan (elastik). Shu sababli xom ashyo tovarlarini eksport qilishdan olinadigan daromadlar yuqori unumli asbob-uskunalar va texnologiyalar importini kengaytirishga yo`l ko`ymaydi. Uchinchindan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi asosan qishloq xo`jaligida band. Bu tarmoqda mehnat unumdarligi past bo`lganligi sababli umuman iqtisodiyot bo`yicha mehnat unumdarligini oshirish uchun jadal sanoatlashuv zarur.

Xalqaro savdo muammosi bo`yicha tadqiqotlar olib borgan G. P. Ovchinnikov iqtisodiyotni import o`rnini bosish siyosati orqali rivojlantirishni taqozo etadigan asosiy sabablar sifatida quyidagilar ko`p uchrashini ta`kidlagan:

- savdo balansi taqchilligiga qarshi kurash vositasi;
- arzon xorijiy mehnat;
- yosh sanoat tarmoqlarini qo`llab - quvvatlash;

- davlat daromadini ta`minlash;
- noiqtisodiy sabablar.



**3 - rasm. Import tarifi yordamida yangi, yaqinda tashkil etilgan sanoat tarmoqlarini himoyalash**

Yuqoridagi rasm yosh sanoat tarmog`i mahsuloti ichki narxlarining import tarifi kiritilguncha va kiritilgandan keyingi o`zgarishini ifodalaydi. Boshlang`ich davrda ichki narxlar darajasi ushbu mahsulotlarga bo`lgan jahon narxiga nisbatan yuqori ( $R_b > R_m$ ). Bu shuni anglatadiki, tarmoq raqobatbardosh emas, uning mahsulotlari iste`molchilar tomonidan sotib olinmaydi, chunki iste`molchilar import mahsulotini afzal biladilar.  $T_1$  vaqt oraliq`ida t-import tarifi kiritiladi. Tarmoq mahsuloti endi mamlakat ichkarisida  $R_1$  b bahoda sotilishi mumkin.  $R_1$  b baho esa jahon narxi va tarif yig`indisiga ( $R_1$  b =  $R_m$  Q t) teng.  $T_1$   $T_2$  vaqt oraliq`ida tarmoq tomonidan olinadigan qo`shimcha jamg`arma texnologik uskunalarini yangilash, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni yaxshilash, ishchilar malakasini oshirishga sarflanadi. Bu o`z – o`zidan narxning pasayishiga ta`sir ko`rsatadi.  $T_2$   $T_3$  vaqt oraliq`ida mahsulot narxi jahon bozori narxi darajasiga tushadi.  $T_3$   $T_4$  oraliq`ida esa jaxon bozori narxidan ham pastga tushadi, tarmoq esa raqobatbardosh tarmoqqa aylanadi va tarifni bekor qilish mumkin. «Tariflarni faqat shu holda oqlash mumkinki, - deb yozadi Lindert P.X., - agar mamlakat kambag`al bo`lsa, uning hukumati shu qadar chorasiz bo`lsaki, tariflar

ijtimoiy dasturlar va investitsiya faoliyatining hayotiy muhim mablag`lari manbasi bo`lsa». Albatta, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida bunday vaziyatlar deyarli uchramaydi va bunday holatning bo`lishi qonuniyat emas, balki tasodifdir.

Tashqi savdo siyosatining ikkinchi muhim shakli - eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishni ko`zda tutadigan siyosatdir. Bu siyosat 60-yillarda janubiy-sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlari - Tayvan, Singapur, Gonkong va Janubiy Koreya tomonidan qo`llanildi va mazkur mamlakatlar 60-yillardan boshlaboq iqtisodiyotni sanoatlashtirish, iqtisodiy rivojlanish va pirovard natijada kishilar turmush darajasini oshirishning yuqori sur`atlarini namoyon qila boshladilar. Xo`s, bu tashqi savdo siyosatining o`ziga xos xususiyatlari nimada? U import o`rnini bosish strategiyasidan printsipial jihatdan qanday farq qiladi? Eng avvalo shuni ta`kidlash lozimki, bu savdo siyosatining asosiy maqsadi ham iqtisodiyotni sanoatlashtirish orqali kishilar turmursh farovonligini oshirishga qaratilgan. Biroq unga erishish yo`llari va usullari jihatidan import o`rnini bosish strategiyasidan farq qiladi. Eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan tashqi savdo siyosatiga berilgan ta`riflarni tadqiq etish shunday xulosaga olib keladiki, u eng avvalo «ochiq iqtisodiyot» sharoitida mumkin bo`ladi va erkin savdo tamoyillariga asoslanadi. Masalan, N. Sirojiddinov nuqtai-nazariga ko`ra, «...eksportga yo`naltirilgan siyosatning maqsadi ham iqtisodiyotni sanoatlashtirish hisoblanadi, ammo unga tashqi savdo cheklashlari va importni diskriminatsiyalash yordamida importni milliy ishlab chiqarish bilan almashtirish yo`li bilan emas, balki eksport salohiyatini oshirish yo`li bilan erishiladi». Demak, eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarish eng avvalo eksport salohiyatini yuksaltirishni ko`zda tutadi. Eksport salohiyatini yuksaltirish esa iqtisodiyotning ochiq, bo`lishini talab qiladi. A.Rasulev, A. Bedrintsev va A. Oqilovlar eksportga yo`naltirilgan siyosatning eng asosiy maqsadi «jahon bozorida o`sib boruvchi yoki potentsial talabga ega bo`lgan tovarlar ishlab chiqarish yo`li bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va nisbatan yuqori iqtisodiy o`sish sur`atlariga erishishdan iborat», - deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bunga erishish uchun bir tomondan,

ishlab chiqarish samaradorligining o'sishini ta`minlovchi manbalar va omillar to`g`ri hisobga olinishi, ikkinchi tomondan, jahon bozorida raqobat kurashiga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mamlakatning nisbiy afzalliklari ishonchli aniqlanishi lozim.

Eksportni rag`batlantirish siyosatining import o`rnini bosishga nisbatan samaraliroq ekanligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillarning eng muhimlari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

Eksportni rag`batlantirish siyosatining amalga oshirilishi o`z mohiyatiga ko`ra davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullarini ko`proq qo'llanishini taqozo qiladi. Ayni vaqtda import o`rnini bosish strategiyasida bevosa usullar ko`proq qo'llaniladi. Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashqi bozorga mo`ljallangan bo`lsa, davlat iqtisodiyotni erkinlashtirishni amalga oshirishga majbur bo`ladi va bevosa tartibga solishdan voz kechadi. Agar korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar ichki bozorga mo`ljallangan bo`lsa va milliy ishlab chiqaruvchilar protektsionistik to`silalar bilan himoyalangan bo`lsa, hukumatda bevosa tartibga solish usulini ko`proq ishlatishga imkoniyat va xoxish paydo bo`ladi. Ko`p hollarda davlat tomonidan bevosa tartibga solish usullari nisbatan kam samarali bo`ladi. Bu esa import o`rnini bosish siyosatiga nisbatan eksportga yo`naltirilgan siyosatning eng asosiy afzalligi va ustuvorligi hisoblanadi.

2. Eksportga yo`naltirilgan siyosatni amalga oshirishda ko`plab milliy korxonalar va firmalar o`z mahsulotlarini jahon bozorida sota boshlaydilar va u erda qattiq raqobatga duch keladilar. Bu esa tannarxni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish uchun ishlab chiqarishni doimiy tarzda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Import o`rnini bosish siyosatida esa odatda korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlar ichki bozorda sotiladi. Ichki bozorda esa raqobat mavjud emas. Chunki ichki bozorga mahsulot etkazib beruvchi korxona va firmalar uchun barcha shart - sharoitlar (protektsionizm vositasida) yaratib berilgan. Bu ularning monopolashuvini kuchaytiradi. Monopoliyalar esa uz foydalarini mahsulotning tannarxini pasaytirish va sifatini yaxshilash evaziga emas, balki ishlab chikarish

xajmini chegaralash va uz mahsulotiga bulgan narxni oshirish hisobidan kupaytirishga harakat kiladilar.

3. Eksportni rag`batlantirish siyosatining import o`rnini bosish siyosatiga nisbatan afzalligining yana bir sababi shundan iboratki, eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarish miqyos (masshtab) samarasiga erishish uchun imkon yaratadi, chunki korxona va firmalar o`z mahsulotlarini asosan jahon bozorida sotadilar. Import o`rnini bosish siyosatida esa ichki bozor hajmining kichikligi sababli miqyos samarasiga erishib bo`lmaydi. Aholi daromadlarining pastligi ham bunga imkon bermaydi.

4. Import o`rnini bosish siyosatiga xos bo`lgan yuqori protektsionizm jamiyat nuqtai-nazaridan «unumsiz» mehnat xarajatlarining ko`payishiga olib keladi. Ishlab chiqaruvchilarning ko`plab mablag`lari va vaqtłari ishlab chiqarishni takomillashtirish va iste`molchilar ehtiyojlarini qondirishga emas, balki import uchun litsenziya va imtiyozlar olishga, resurslarni past naxlarda sotib olishga, imtiyozlarga ega firmalarning monopol mavqeini mustahkamlashga sarflanadi. Korxona va firmalar teng sharoitga qo`yiladigan va eksport rag`bantlantiriladigan sharoitda esa bunday holatlar mavjud bo`lmaydi.

5. Import o`rnini bosish strategiyasi sharoitida protektsionizm yanada kuchayib boradi. Xususiy eksport va xorijiy valyuta kirib kelishining past sur`atlari sharoitida sanoatlashtirishning yirik dasturlari, daromadlarning o`sishi va inflyatsiyaning yuqori sur`atlari xorijiy valyutaga bo`lgan talabning keskin oshishiga olib keladi. SHu sababli tashqi qarzlarni uzish uchun yoki qat`iy belgilangan almashuv kursi joriy qilinadi yoki milliy valyuta almashuv kursining pasayishi inflyatsiya sur`atlaridan orqada qoladi. Bunday strategiya milliy valyuta haqiqiy almashuv kursining pasayishiga olib keladi va tovarlar raqobatbordoshligi yanada pasayadi.

6. Import o`rnini bosish strategiyasi pirovard natijada nafaqat import, balki eksportning ham pasayishiga olib keladi. Buning sababi esa jahon bozorida milliy tovarlar raqobatbardoshligining pasayib ketishidir.

Shunday qilib, jahon tajribasi va jahon xo`jalik tizimi rivojlanishidagi tedentsiyalar, eksportga yo`naltirilgan siyosatning maqsadga muvofiq ekanligini ko`rsatmoqda.

Mamlakatimizda eksportga yo`naltirilgan rivojlanish usuliga o`tish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- jahon bozoridagi kuchli raqobat, ichki nomutanosibliklarni bartaraf etish va foydalanimayotgan zaxiralarni izlab topish zaruriyati tufayli iqtisodiyotning barcha bo`g`inlarida boshqarish sifati yaxshilanadi;

eksportni barqaror o`stirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o`sish ta`minlanadi;

inflyatsiya darajasi pasayadi, milliy valyutamizning qadri oshadi, xorijiy valyuta tushumi ko`payadi;

asosiysi ishlab chiqaruvchilarda moddiy manfaatdorlik va o`z mehnatiga hurmat oshadi va hokazo.

### **1-bob bo`yicha xulosalar**

Mashinasozlikning tez sur`atlar bilan rivojlanishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining yangi tovar nomenklakturasi bo`yicha jadal o`sishiga imkoniyat yaratdi (avtomobillar, radioelektronika va elektrotexnika mahsulotlari va boshqalar). Bu esa ularning sanoatdagi umumiy salmog`ining o`sishiga olib keldi. O`zbekistonda mashinasozlikning rivojlanishi borasidagi asosiy natijalar texnik va texnologik mustaqillikni ta`minlash uchun etarli emas.

Eksport salohiyatini yoki eksportga mahsulot ishlab chiqarishning mohiyati va ahamiyatini tahlil qilishning uslubiy tamoyillarini quyidagicha talqin qilish mumkin: bu kategoriyalarning mohiyatini aniqlashda kompleks yondashuv, ya`ni ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti me`zonlari asosida ta`rif berish; eksportga mahsulot ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuv, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyalashuvi, jahon xo`jalik aloqalarining integratsiyasi va chuqurlashuvining boshlang`ich asosi sifatida talqin

qilish; eksportga yunaltirilgan ishlab chiqarishni milliy va baynalminal ishlab chiqarishning ajralmas qismi sifatida qarash;

Zamonaviy bozor xususiyatlarini, quyidagilarga bo`lish mumkin: ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishi natijasida tovarlar va texnikaviy yangiliklar hayot davrining qisqarishi; yirik kompaniyalar, ayniqsa, transmilliy kompaniyalar o`rtasida sotish bozorlari uchun raqobat kurashi usullarining o`ta keskinlashuvi; bozorga taklif qilinayotgan tovarlarning assortment jihatdan ko`pligi va sifat kursatkichlari jihatdan juda ham yuqori bo`lishi; yana bir eng muhim xususiyat bu - iste`molchilarining o`zlarida sodir bo`layotgan o`zgarishlar.

## **2-Bob. Mashinasozlik tarmog`i yirik korxonalarining raqobatbaroshlik ko`rsatkichlari tahlili**

### **2.1. “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining tahlili**

“O`zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 17 martdagи 144-sон qarori hamda ta’sis majlisi qarori asosida “Radioelektronexasbob” O`zbekiston radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik sanoati konserni “O`zeltexsanoat” uyushmasi etib qayta tashkil etildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2003 yil 22 dekabrdagi 3366-sон Farmoni hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 apreldagi “O`zbekiston radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik sanoati korxonalari uyushmasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 205-sон Qarori bilan kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi tashkil etildi va uning asosiy faoliyat yo‘nalishlari belgilandi.

“O`zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagи “2014-2018 yillarda respublika elektrotexnika sanoatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2123-sон qaroriga muvofiq “O`zeltexsanoat” kompaniyasini qayta tashkil qilish tartibida tashkil etildi.

“O`zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasi “O`zeltexsanoat” kompaniyasining huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy voris hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 21 dekabrdagi 8-sон protokoliga asosan “O`zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasi strukturasi qayta shakllantirildi.

Kompaniyaning faoliyat sohasi (asosiy yo‘nalishlari) va maqsadlari:

Quyidagilar kompaniya faoliyatining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari hisoblanadi:

– elektrotexnika tarmog‘i korxonalarining sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va marketing faoliyatini muvofiqlashtirish, ichki va tashqi bozorlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talablar kon'yunkturasini tubdan o‘rganishni tashkil qilish va shu asosda tarmoq korxonalarida yangi talabgor elektrotexnika mahsulotlari turlari va nomenklaturasini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda yaqindan ko‘maklashish;

– tarmoq korxonalarida yangi yuqori samarali texnologiyalarni keng joriy etishni ko‘zda tutuvchi yagona texnik siyosat yuritish, sanoat kooperasiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va buyumlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni yanada chuqurlashtirish;

– elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizasiyalash bo‘yicha muhim investisiya loyihamini amalga oshirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan faol investisiyaviy siyosat yuritish, qo‘shma korxonalar tuzish uchun tarmoqqa taniqli jahon savdo markalari ostida murakkab maishiy elektrotexnika jihozlarini ishlab chiqaruvchi strategik xorijiy sarmoyadorlarni jalg etish;

– elektrotexnika tarmog‘i korxonalarini zamonaviy yuqori malakali kadrlar bilan kuchaytirish, muhandis-texnik va boshqaruv xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va muntazam ravishda malakasini oshirish.

Elektrotexnika sanoati sohasi O‘zbekiston infrastrukturasi sohalaridan biri hisoblanadi. “O’zeltexsanot” AK O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mashinasozlik, avtomobil va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari kompleksiga kiritilgan bo‘lib, ish faoliyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Respublikamizda bozor islohotlarining yanada chuqurlashib borishi, ichki va tashqi savdo sharoitining muttasil o`zgarib, murakkablashib borishi korxonaning bozor munosabatlariga, uning o`ziga xos xususiyatlariga moslashib borishni taqozo qilmoqda. SHu sababli korxonaning xo`jalik yuritish faoliyatini marketing tamoyillari asosida kompleks tahlil qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Pirovard maqsadda bozorni, tayin bir iste`molchini ko`zlash, raqobatchilar va raqobat usulini puxta o`rganish, korxonaning ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko`rsatish siyosatini doimiy tahlil qilib borish yutuq va barqaror faoliyat garovi bo`lib bormoqda. Bozor kon`yunkturasini va o`z imkoniyatlarini marketingli tahlil qilish korxonaga mahsulotni rejalashtirish, loyihalash, yaratish va ishlab chiqarishni xaridor talab va ehtiyojlariga muvofiq ravishda aniq amalga oshirish imkonini beradi. Marketing tadqiqotlari tizimida korxonaning ishlab chiqarish va eksport faoliyatini o`rganish asosan ikki bosqichda olib boriladi:

korxonaning faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi tashqi omillarni o`rganish (makro muhit);

ishlab chiqarish va eksport faoliyatini shakllantirishga ta`sir ko`rsatuvchi ichki omillarni aniqlash (mikro muhit).

Birinchi bosqichda davlat tomonidan korxonaning ishlab chiqarish va eksport faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar, ya`ni korxonaning faoliyat ko`rsatish huquqiy bazasi, qonun va farmoyishlar, soliq stavkalari, kredit foizlari, bojxona tariflari, davlat tasarrufidagi korxonalarda baho siyosatini amalga oshirish bo`yicha ko`rsatmalar, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bo`yicha imtiyoz va cheklashlar tahlil qilinadi.

Ikkinci bosqichda esa korxonaning faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi ichki omillar tahlil qilinadi, ular quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

a) korxonaning moliyaviy - iqtisodiy holatini tahlil qilish, bunda asosiy e`tibor korxonaning iqtisodiy salohiyatini, xo`jalik yuritish mexanizmini, texnik - iqtisodiy ko`rsatkichlarini, moliyaviy va rentabellik ko`rsatkichlarini tahlil qilishga qaratiladi;


b) korxonaning tovar assortimentini tahlil qilish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash, bu o`rinda korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nomenklaturasi bo`yicha rejaning bajarilishi, har bir mahsulotning korxona samaradorligida tutgan o`rni, mahsulotlarga sarflanadigan xarajatlar tahlil qilinadi;

v) korxonaning ishlab chiqarish va tovar zahiralarini tahlil qilish, bu o`rinda ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish darajasi, fond qaytimi va fond sig`imi, ularning tarkibi va yangilanish darajasi, kabilar tahlil qilinadi;

g) korxonaning eksport salohiyatini baholash, bunda eksportga ixtisoslashuv darajasi, eksport mahsulotlarining korxona foydasidagi ulushi, eksport tovarlarining yangilanish darajasi, eksportning jug`rofiy taqsimlanishi kabi ko`rsatkichlar tahlil qilinadi;

d) korxonaning ilmiy - texnika va tajriba konstruktorlik faoliyatini baholash, bunda ilmiy tadqiqot ishlarining rentabellik darajasi, qilingan ixtiolar va olingan patentlar, ishlab chiqarishga joriy qilingan yangi mahsulotlar miqdori va ulardan kelgan samara, kadrlar malakasini oshirish va boshqa ko`rsatkichlar tahlil qilinadi;

e) marketing - miksni tashkil qilish va uni amalga oshirishdan keladigan natijalarini tahlil qilish, bu erda o`rganiladigan ko`rsatkichlar juda ham keng, masalan: marketing - miksga sarflangan umumiy xarajatlar va uning samarasi; sotish kanalini tashkil qilish rentabelligi; reklama byudjetini tashkil qilish va uning bajarilishi ko`rsatkichi; talabni shakllantirish va sotishni rag`batlantirish tadbirlariga sarflangan mablag`larning rentabelligi va hokazolar.



4 - rasm. Mashinasozlik tarmog'i klasterining funktional modeli

Respublikamiz mashinasozlik korxonalari faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish va uning eksport salohiyati yuqoridagi klaster modelida o'z ifodasini topgan ( 4-rasm). Taklif etilayotgan klasterda davlat tashkilotlari, xususiy sektor, ilmiy-tadqiqot ishlari, xom ashyo etkazib beruchilar, savdo-dilerlik, servis xizmati ko`rsatish va ta`lim bo`g`inlari birgalikda faoliyat yuritadilar, pirovard natijada raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan 6 yo`nalish bo`yicha marketing tahlilini amalga oshirishdan maqsad: birinchidan - korxonaning raqobatbardoshlilik

imkoniyatlarini, uning SWOT tahlili, xo`jalik faoliyatini takomillashtirish bo`yicha yo`l - yo`riqlarni aniqlashga yordam bersa; ikkinchidan - korxonaning tashqi bozordagi marketing strategiyasini belgilash va jahon bozori talablariga mos tovarlar ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish hamda eksport salohiyatini oshirishni ta`minlashdan iborat bo`ladi. SHunday qilib, biz bu bobda «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining ishlab chiqarish va eksport faoliyatini yuqorida keltirilgan yo`nalishlar bo`yicha tahlil qilamiz.

Respublikamiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda, iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirishda mashinasozlik tarmog`i hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. chunki zamonaviy texnika-texnologiya, nau-xou, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, keng iste`mol tovarlari shu sohada yaratiladi. Ikkinci jihatdan, xalq xo`jaligining boshqa tarmoqlari uchun mashinasozlik ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqa xizmat qurollari etkazib beradi. SHu jihatdan mashinasozlik tarmog`ining jadal rivojlanishi, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning, eksport salohiyatini oshirishning zaruriy omillaridan biri sifatida namoyon bo`ladi. «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi respublikamizning mashinasozlik korxonalari bazasida tashkil qilindi. Assotsiatsiya tarkibiga 100 dan ortiq korxona va tashkilotlar a`zo bo`lib, davlat tasarrufidan chiqarish tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida 38 ta hissadorlik jamiyati, 8 ta jamoa va 22 ta qo`shma korxona tashkil qilindi. Hozirgi kunda assotsiatsiya tarkibida 4 ta loyiha-konstrukturlik tashkilotlari, ko`plab firma va kichik korxonalar faoliyat ko`rsatmoqda. Tashkil qilingan 22 qo`shma korxonadan 12 tasi mamlakatimizda, 6 tasi xorijda va qolgan 4 tasi esa ishga tushish bosqichida. Assotsiatsiyada 2016-yil bo'yicha ishlab chiqarish hajmi joriy narxlarda 1 336.5 mlrd. so'mni tashkil etdi (prognoz bo'yicha 1 195.6 mlrd.so'm). 2015-yil yakuniga nisbatan o'sish surati 113,6% tashkil etdi (tasdiqlangan parametr – 112,0%).

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibi: kabel-sim mahsulotlari – 45.7%, past voltli uskunalar, kuchlanish transformatorlari – 22.9%, elektron uskunalar, maishiy texnika – 29,1%, boshqa mahsulotlar – 2.3%.

Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish o'sish sura'ti 2015 yilning yakuniga nisbatan 113,1% ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xalq iste'mol mollari nomenklaturasi – konditsionerlar - 99,1 ming dona, kir yuvish mashinalari – 125,0 ming dona, changyutgichlar – 82,4 ming dona, mikroto'lqinli pechlar – 34,2 ming dona, muzlatgichlar – 135,2 ming dona, ovqat pishirish texnikasi – 187,8 ming dona, televizorlar – 162,2 ming dona, mobil telefonlar – 77,0 ming dona, energiya tejamkor lampalar – 3,172 ml.dona va boshqalar.

2016-yilda chiqarilgan mahsulotlarning 39,8% eksportga chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Afg'oniston Islom Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Buyuk Britaniya, Ukraina, Tojikiston, Gruziya, Turkiya, Mog`uliston Respublikasi, Janubiy Koreya, Germaniya va BAA davlatlariga eksport qilindi.

Shuningdek "O'zelteksanoat" AK va tarmoq kompaniyalari tomonidan eksport bozorini kengaytirish va diversifikatsiya qilish maqsadida, Belorussiya, Pokiston, va boshqa davlatlar bozoriga eksport yo'lga tushirilmoqda.

Artel brendi ostida eksport qilinayotgan mahsulotlar va iste'molchilarga servis sifatini yanada oshirish maqsadida "Artel" tovar nomi ostida mahsulot ishlab chiqariyotgan korxonalar tomonidan Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Afg'oniston Islom Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Tojikiston, Turkiya shaharlarida ulgurji va chakana savdo markazlari ochildi.

2016-yil oktyabr oyida X - Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjasи bo'lib o'tdi. Bu tadbirda soha tizimidagi 13 ta korxona shu bilan birga "Artel" tovar nomi ostida mahsulot ishlab chiqariyotgan 23 ta korxonalar o`z maxsulotlari bilan ishtirok etdi. Korxonalar tomonidan materiallar va texnik uskunalar sotib olish uchun jami 419,3 mlrd.so'mlik 46 ta shartnomalar tuzildi.

**"O'zeltexsanoat" AK va tarmoq kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarish hajmi**

Nº T/r	Nomi	O'lchov birligi	2015 yil	2016 yil
			fakt	fakt
Mahsulot ishlab chiqarish				
1	Tovar mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi (hozirgi narxlarda)	mlrd.so'm	1272.0	1 336.5
1.1	Ise'mol tovarlarini ishlab chiqarishni o'tgan yilga nisbatan o'sish tempi (taqqoslama narxlarda)	%	116.2	113,6
2	Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	mlrd.so'm	429.2	478.7
2.1	Oldingi yilga nisbatan o'sish tempi	%	123.5	113.1
3	Mahuslot tannarxi pasayishi	%	10.4	10.0
4	Eksport hajmi	% Prognozga nisbatan	100.1	73.1
Investitsion dastur				
5.1	Jalb qilingan mablag'lar	mln.doll	68.86	31.800
6	Mahalliylashtirilgan mahsulotlar hajmi	mlrd.so'm	284.8	215.9
7	Kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalar realizatsiyasi	mln.so'm	505.4	65.6

Manba: <http://uzeltexsanoat.uz/uz/korporativ-faoliyat/korporativ-hisobotlar/> 2017 yil 10


aprel

Asosiy yirik korxonalar "Artikul Aziya Kabel" MCHJ QK, «Navoi Cable Connector» MCHJ HK, "Yuqorichirchiq Metall Invest" MCHJ QK, «Andijonkabel» qo'shma korxonasi, «Uzelektroterm» hissadorlik jamiyati, "Sino Eco Plast" MCHJ, "Dupond Profiles" MCHJ HK, «O'zkabel» qo'shma korxonasi, «Doyche Kabel AG Tashkent» qo'shma korxonasi, «O'zelektroapparat» qo'shma korxonasi, «ONIKS» ma'suliysi cheklangan jamiyat, Farg`ona viloyatida «Elektromash» ma'suliysi cheklangan jamiyat, «Samarqand liftsozlik zavodi» kabi korxonalar assotsiatsiya umumiy ishlab chiqarishida salmoqli o'rinni egallaydi.

Assotsiatsiya ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga ko`ra asosan uch yo`nalishda faoliyat olib boradi:

- traktor va qishloq xo`jalik mashinasozligi;
- paxtani tozalash va to`qimachilik sanoati mashinasozligi;
- umumiy mashinasozlik.

2016 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda mashinasozlik tarmog`ining ulushi 15,0 foizni tashkil etdi, iste`mol qilinadigan tayyor mahsulot tarkibida esa 12,8 foiz atrofida. Holbuki hozirgi zamон iqtisodiyotida bu ko`rsatkich 25 foizga, MDH davlatlari uchun o`rtacha 17 foizga tengdir.



#### **5 - rasm. Mashinasozlik tarmog`ida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish darajasi (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)**

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

Ayni paytda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasi va mahsulot sifati yuqori emasligi, rivojlangan ta`minlash xizmatining yo`qligi, ishlab chiqarishning ko`pgina korxonalarda bozor talablariga mos ravishda tashkil qilinmaganligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanmaslik tarmoq tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlarning qariyb to`rtdan bir qismi faqat jahon bozorida emas, balki ichki bozorda ham talabning yo`qligi tufayli qolib ketmoqda. Mashinasozlik tarmog`ining respublikamiz uchun an`anaviy hisoblangan sohalari - paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalash, paxtani qayta ishslash, melioratsiya va irrigatsiyani rivojlantirish, to`qimachilik sanoati uchun mashina-uskunalar ishlab chiqarishda

shunday vaziyat vujudga keldiki, mahsulotlarimiz xorij mamlakatlarining texnikalari bilan raqobat qila olmay qoldi.

Jahonda hozirgi kunda ikki davlat (AQSH va O`zbekiston) paxtachilik uchun mashina va uskunalarning to`liq majmuini ishlab chiqaradi, respublikamiz O`rta Osiyoda pillani qayta ishlash va yigirish uskunalari ishlab chiqaruvchi yagona davlat, bundan tashqari O`rta Osiyo bo`yicha mashinasozlik mahsulotlarining uchdan ikki qismi respublikamiz korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladi. -jadvalda assotsiatsiyada mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha umumiy ma`lumotlar keltirilgan.

Quyidagi jadvaldan ma`lumotlaridan ko`rinib turganidek assotsiatsiyada mahsulot ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotning ikki xil bahoda hisoblanishiga asosiy sabab shuki, har yilning amaldagi baholarida hisoblangan miqdor tahlil qilish uchun etarli emas, chunki inflyatsiya darajasi, narh-navoning oshib borishi mahsulotning baxosiga ham ta`sir ko`rsatadi va rivojlanishning haqiqiy darajasini aniqlashda bo`rttirishlarga olib keladi.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilishda qo`llaniladigan asosiy sifat ko`rsatkichlaridan biri, bu tuzilgan shartnomalar bo`yicha iste`molchilarni tovarlar bilan ta`minlash ko`rsatkichidir. Iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan nomutanosiblikni oldini olish uchun korxonalar mahsulot ishlab chiqarishni assortment bo`yicha bajarishlari lozim.

**2 - jadval**

**«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi bo`yicha mahsulot assortimenti  
rejasining bajarilishi**

<b>Mahsulot turlari</b>	<b>2010 yil</b>			<b>2016 yil</b>			<b>2010 y.ga nisbatan 2016 y. da, %</b>
	<b>Reja</b>	<b>Haqi qatda</b>	<b>Reja ning baj. %</b>	<b>Reja</b>	<b>Haqi qatda</b>	<b>Reja ning baj. %</b>	
Ko`priki elektr ko`tarma kran.,dona	60	55	91,6	67	61	91,6	110,9
Kimyo asbob- uskunalar, mln.so`m	136,4	158,6	106,4	361,7	325,2	91,6	200,6
Markazdan qochirma nasos., dona	2737	2700	98,6	2745	2263	82,4	83,8
Zadvijka., dona	10245	10245	100,0	15000	12870	85,8	125,6
Kompressor. dona	784	608	77,5	538	542	100,7	89,1
Gidropriv.va gid. avto.ka, ming so`m	5648	5400	95,6	17700	15650	88,4	289,8
Metall qirquvchi asboblar, mln.so`m	5,7	5,8	101,7	16,0	17,7	110,6	305,1
Sun`iy olmosdan tayyo.as.b.,mln.kar.	3,5	2,8	80,0	3,63	3,28	90,3	117,1
Bir kovshli ekska-vator EO-3221A, dona	48	24	50	40	37	92,5	154,1
Engil san.u.n asbob uskunalar, ming so`m	53,5	48,6	90,8	31,0	28,5	91,8	58,6
Engil sanoat u.n ehtiyyot qismlar, ming sum	38,3	28,7	74,9	27,2	28,1	103,3	97,9
Paxta toz.sanoati u.n asb.uskunalar ming so`m	45,2	47,8	105,7	153,7	128,8	83,7	269,4
Ehtiyyot qismlar, ming so`m	48,0	49,2	102,5	86,0	84,5	98,2	171,7
To`q.chilik san.u.n asbob -uskuna, ming so`m	48,0	49,1	102,2	68,0	72,4	106,4	147,4

Manba: «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Assortiment bo`yicha rejaning bajarilmasligi iste`molchilarining texnikaviy - iqtisodiy ko`rsatkichlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi: ish vaqt va dastgohlardan unumli foydalanmaslikka, korxonaning bir ma`romda ishlamasligiga, qurilish ob`ektlarining o`z muddatida foydalanishga topshirmaslikka sabab bo`ladi. Ko`pincha assortiment bo`yicha rejaning bajarilmasligiga uni ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyoning etishmasligi sabab bo`ladi. 2 - jadvaldan ko`rinib turganidek assotsiatsiyada tahlil qilinayotgan davr mobaynida ko`pgina tovarlar

bo`yicha ishlab chiqarish rejasi bajarilmagan, masalan nasoslar ishlab chiqarish 2010 yilda 2700 dona bo`lgan bo`lsa, 2016 yilga kelib 2263 taga tushdi yoki oldingi yilga nisbatan 437 dona kam ishlab chiqarildi. Mahsulot rentabellik darajasi 2012 yilda 31,7, 2013 yilda 28,7, 2014 yilda 27,8 va 2016 yilda 28,2 foizni tashkil qildi.


«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlari korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Masalan, Toshkent shahrida ko`prikl elektr ko`tarma kranlarining 100 foizi, kompressorlarning 86,5 foizi, sun`iy olmosdan tayyorlangan asbob-uskunalarning 100 foizi, bir kovshli ekskavatorlarning 77,4 foizi, to`qimachilik va engil sanoat korxonalari uchun uskunalarning 70-80 foizi, Andijon viloyatida dizel va dizel motorlarining 90 foizi, markazdan qochirma nasoslarning 47,6 foizi, bir kovshli ekskavatorlarning 22,6 foizi ishlab chiqariladi. Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini marketingli tahlil qilishda asosiy e`tibor qaratiladigan yo`nalishlardan biri bu asosiy fondlardan foydalanish darajasi, ularning tarkibi, yangilanishi, fondlar samaradorligi va boshqalardir. Har bir korxonaning asosiy fondlari ishlab chiqarishdagi o`z o`rniga ko`ra ikki turkumga bo`linadi:

sanoat ishlab chiqarish fondlari;

noishlab chiqarish fondlari.

Biz ilmiy ishimizda asosiy e`tiborni ishlab chiqarish fondlariga qaratamiz, chunki mahsulot ishlab chiqarishni ko`paytirish, sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish ko`p jihatdan ularning hajmi va salmog`iga bog`liq. Asosiy fondlar holati va ulardan foydalanish darajasini marketing tadqiqoti natural va qiymat ko`rsatkichlari orqali olib boriladi. Natural qo`rsatkichlar fondlarning texnikaviy tarkibini aniqlashga, mayjud resurslarni asbob-uskuna va mashinalarga bo`lgan talab bilan qiyoslashga, ishlab chiqarish quvvatining hajmini hisoblashga, uskunalardan foydalanishni yaxshilash bo`yicha ko`rildigan chora-tadbirlarning samaradorligini aniqlashga imkon bersa, qiymat ko`rsatkichlari esa asosiy fondlarning umumiyligi hajmi va ularning dinamikasi, kapital sarfi, yangi texnika

samaradorligini baholash kabilarda muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz sanoat korxonalari ishlab chiqarish asosiy fondlari umumiyligi qiyamatida mashinasozlik tarmog`ining ulushi so`nggi yillarda keskin o`zgarmoqda (6- rasm). Rasmdan ko`rinib turganidek, oxirgi 4 yil ichida tarmoqning asosiy ishlab chiqarish fondlari juda keskin o`zgarishlarga duchor bo`lgan. 2012 yilda asosiy kapitalga qo`yilgan sarmoyalar hajmi korxonaning sof foydasiga nisbatan 10,1 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 2016 yilda bu ko`rsatkich 4,6 foizni tashkil qildi. Ya`ni ishlab chiqarish fondlarini yangilashga ajratmalar keskin kamaydi. Bundan tashqari, asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koeffitsienti 2012 yilda 10,1 foiz, 2013 yilda 3,4 foiz, 2014 yilda 6,3 foiz va 2016 yilda 6,9 foizni tashkil qildi.



#### **6 - rasm. Mashinasozlik korxonalari asosiy ishlab chiqarish fondlarining o`zgarish dinamikasi (foiz hisobida)**

Manba: «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

Bu o`z navbatida asosiy fondlarning yangilanish darajasi pastligidan dalolat beradi. Sanoatning boshqa tarmoqlarida bu ko`rsatkich quyidagicha: elektroenergetika 26,7, yoqilg`i 24,1, qora metallurgiya 21,6, engil sanoatda 12,9 foizni tashkil qildi. Sanoat tarmoqlari ichida ishlab chiqarish fondlarini ishlab chiqarishdan chetlatish koeffitsienti ham mashinasozlik tarmog`ida juda past darajada. Ya`ni, 2012 yilda 2,7 foiz, 2013 yilda 2,8 foiz, 2014 yilda 1,3 foiz va

2015 yilda 1,9 foizni tashkil qildi. Butun sanoat tarmoqlari bo`yicha bu ko`rsatkich 2016 yilda 7,9 foizni tashkil qildi. Bu keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan mashinasozlik tarmog`ining ustuvor yo`nalishlarini jadal rivojlantirishga katta e`tibor berilayotganligining nishonasidir. Quyidagi jadvalda korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko`rsatkichlari keltirilgan. Jadvaldan ko`rinib turganidek tahlil qilinayotgan davr mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlari 42,5 mln.so`mga yoki 102,7 foizga oshdi, yangi quvvatlarni ishga tushirish esa 3,5 martaga ko`paydi, mavjud fondlarni ta`mirlash, qayta qurollantirish va ilg`or texnologiyalarni joriy qilish uchun ajratmalar oldingi yilga nisbatan 2,6 martaga o`sdi.

### **3 - jadval**

#### **«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari va ulardan foydalanish samaradorligi (mln.so`m hisobida)**

Ko`rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	o`tgan yilga nisbatan o`zgarish	
			summa +,-	%
Asosiy ishlab chiqarish fondlari, yil boshida	1504,7	1535,2	+30,5	102,0
Asosiy ishlab chiqarish fondlari, yil oxirida	1535,2	1577,7	+42,5	102,7
Amortizatsiya ajratmalari	69,1	66,7	- 2,4	96,5
Yangi quvvatlarni ishga tushirish	3,2	11,2	+8,0	3,5 marta
Mavjud fondlarni ta`-mirlash, qayta qurollan.	3,49	9,22	+5,73	2,6 marta
Asosiy fondlarni eskirish summasi	247,6	249,2	+1,6	103,4
Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti, %	16,1	15,8	- 0,3	98,1
Asosiy fondlarning ishga yaroqlilik koeffitsienti, foiz	83,9	84,2	+0,3	100,4
Fonddan keladigan samara, so`m	0,89	1,36	+0,47	152,8
Mahsulotning fond sig`imi, so`m	1,11	0,73	- 0,38	65,8

Manba: «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Asosiy fondlar uzlucksiz foydalanishda bo`ladi, shu sababli ularning bir qismi eskiradi, ishdan chiqadi. Binobarin, asosiy fondlarning texnikaviy holati mahsulot

sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fondlarning texnikaviy holatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlardan biri - ularning eskirish koeffitsienti hisoblanadi. Assotsiatsiya bo'yicha asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti 2012 yilda 16,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda 15,8 foizga teng bo'ldi.

Bu keyingi yillarda yangi texnologiyalarni, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga jadal joriy qilish bilan bog`liqdir. Ammo shuni ham ta'kidlash lozimki, bu jarayon faqatgina sanoqli korxonalarda amalga oshirilmoqda holos.

Masalan, «Andijonkabel» qo'shma korxonasi, «Uzelektroterm» hissadorlik jamiyati, «SINO» hissadorlik jamiyati, «O'zkabel» qo'shma korxonasi, «Doyche Kabel AG Tashkent» qo'shma korxonasi, «ONIKS» ma`suliyligi cheklangan jamiyat, Farg`ona viloyatida «Elektromash» ma`suliyligi cheklangan jamiyat, «Samarqand liftsozlik zavodi», Kompressor zavodi, Pod`emnik hissadorlik jamiyati, Abraziv zavodi, Asbobsoz zavodi va boshqalarda asosiy fondlarni yangilash, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi bir muncha yuqori. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining muvoffaqiyatli bajarilishi nafaqat asosiy fondlarning tarkibiy tuzilishi, texnikaviy holati, balki ulardan samarali foydalanishga ham bog`liqdir. Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo`lib fonddan olinadigan samara(fond qaytmi) hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so`miga bir yil ichida necha so`mlik mahsulot chiqarilganligini ifodalaydi.

Mashinasozlik tarmog`i bo'yicha hisoblaganimizda asosiy fondlarning 1 so`miga keladigan samara 2010 yilda 0,89 tiyinni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda esa 1 so`m 36 tiyinga etdi. SHu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotning fond sig`imi 2010 yildagi 1 so`m 11 tiyindan, 2016 yilda 73 tiyin bo`ldi yoki 38 tiyinga kamaydi. Bu o`z navbatida ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha samarali foydalanish zarurligini namoyon qiladi. - jadvalda ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy fondlardan foydalanish holati to`g`risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo`yicha  
asosiy fondlardan foydalanish holati (foiz hisobida)**

Mahsulot turi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2011 yilga nisbatan 2016 yilda, %
Aylanish o`qi balandligi 63-450mm bo`lgan o`zgaruvchi tokli elektromotorlar	75,0	91,0	81,0	79,2	83,0	81,1	98,9
Kimyoiy asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlar	100,0	81,0	35,0	58,2	75,0	77,6	83,4
Engil san.u.n asbob-uskun, ehtiyyot qismlar	81,0	78,0	77,0	68,4	62,6	62,0	76,5
Sovutgich va muzlatgichlar	100,0	41,0	39,0	40,2	46,3	79,5	79,5
YUK ko`tarish kranlari.	77,1	63,0	71,4	70,6	83,0	81,8	95,1
Tovush uzatish.appar. avtom.bosh.tizml.	-	18,0	21,0	27,0	26,0	29,0	-
Organik bog`lanishli olmos uskunalar	57,0	65,0	66,1	65,4	70,0	72,0	128,6
Galvanik bog`lanishli olmos uskunalar	45,0	37,0	39,0	40,6	50,0	52,6	116,8
Kompressor va kompressor stantsiyalari	75,0	68,0	62,0	65,1	58,0	61,0	79,2
O`rash va qadoqlash uskunalar	67,0	54,0	57,4	60,2	60,0	57,3	102,3
Paxta tozalash uskunalar	80,3	67,0	65,5	56,8	62,0	59,3	76,4
Ekskavatorlar	72,0	64,4	41,7	28,6	18,4	15,7	23,0
Metall qirquvchi asboblar	65,0	56,6	47,4	40,0	35,0	37,2	48,9

Manba: «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

O`tkazilgan tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, assotsiatsiya tarkibiga kiruvchi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlari etarli darajada, ko`pgina mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha quvvatlardan foydalanish juda past darajada.

Masalan, 2011 yildasovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish bo`yicha quvvatlarning 100,0 foizi ishlatalgan bo`lsa, 2016 yilda bu ko`rsatkich 79,5 foizni, ekskavatorlar bo`yicha esa 76,0 va 37,2 foizni tashkil qildi. Buning asosiy sabablari bizning fikrimizcha quyidagilardan iborat:

material va xom ashyolarning etishmasligi;  
ishlab chiqarish fondlarining moddiy va ma`naviy jihatdan eskirganligi;  
iste`molchilar tomonidan buyurtmalarning kamligi;  
mahsulotlarning iste`mol xususiyatlari pastligi va narxining yuqoriligi.

Shuni ham aytish lozimki, korxonalarning ko`pgina mahsulotlariga sobiq ittifoq davrida ham, hozirda ham talab yuqori. Masalan, kimyoviy uskunalar va ehtiyyot qismlari, kompressorlar, galvanik va organik bog`lanishli olmos uskunalar, engil sanoat mashina-uskunalarini va boshqalar. Asosiy fondlarning texnikaviy darajasini ifodalovchi muhim ko`rsatkichlardan yana biri - bu asbob - uskunalarning xizmat qilish yoshi (davri) hisoblanadi. Bu ko`rsatkichni aniqlash asbob-uskunalarning ishlash qobiliyati, ularni almashtirish hamda pirovard natijada fond samarasini oshirishga imkon yaratadi. Odatda, asbob-uskunalar 10 yilgacha bo`lgan davrda almashtirilsa texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladi deb hisoblanardi. Ammo assotsiatsiya korxonalarini asbob-uskunalarining asosiy qismi na faqat ma`naviy, balki moddiy jihatdan eskirib bo`lgan. Bunday uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati past bo`ladi, yangi assortimentdagi mahsulotni ishlab chiqarish qiyin kechadi yoki umuman bo`lmaydi. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko`lamda foydalanishni taqozo qiladi. Ularga foya, sof daromad, rentabellik darajasi, soliqlar, foiz stavkalari va hokazolar kiradi. Ularning ichida foya korxona xo`jalik faoliyatini belgilovchi sifat ko`rsatkichlaridan eng muhimidir. 2.5 - jadvalda assotsiatsiya bo`yicha asosiy moliyaviy ko`rsatkichlar keltirilgan.

Korxonalar oladigan foydaning asosiy qismi tovar mahsulotlarni sotishdan olinadi, 2016 yilda korxonalar umumiy hisobda 2011 yilga nisbatan 150,4 mln.so`m ortiq foya oldilar, korxonalar ihtiyyorida qoladigan foya miqdori 2014 yilda 300,1 mln.so`nni tashkil qildi yoki 2011 yilga nisbatan 92,3 mln.so`mga oshdi. Korxonalarning sarmoyalarga va ijtimoiy sohani rivojlantirishga sarflanadigan mablag`lari ham oldingi yilga nisbatan 102,0 va 117,4 foizga oshdi. SHunday qilib korxonalarning umumiy moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 2011

yilda 57,7 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 2016 yilda bu ko`rsatkich 68,9 foizni tashkil qildi.

Mahsulotni sotishdan kelgan foydaga asosan: sotilgan mahsulot hajmining o`zgarishi, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining, ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarning kamayishi, baholarning va mahsulot assortimentining o`zgarishi kabi omillar ta`sir ko`rsatdi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti, raqobat kurashi sharoitda o`z vaqtida mahsulot assortimentini kengaytirgan, iste`molchilarining talab va istaklari asosida ishlab chiqarishni yo`lga qo`ygan, kompleks marketing tadbirlarini amalga oshirgan korxonagina yuqori foyda olishga erishadi. Bozor shafqatsiz, uning talablariga moslasha olmagan korxona esa kasodga uchraydi, sinadi. Foydaning mutloq miqdori korxonalarining xo`jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama ifodalay olmaydi.

#### **5 - jadval** **«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi mashinasozlik korxonalari rentabellik darajasining tahlili (mln.so`m hisobida)**

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2016 yil	2011 yilga nisbatan	
			mutloq farq, +, -	foizda
Balans foydasi	390,3	540,7	+ 150,4	138,5
Asosiy ishlab chiqarish fondlari yillik o`rtacha qiymati	1504,7	1535,2	+30,50	102,0
Normalashtirilgan aylanma mablag`lar o`rtacha qiymati	511,4	642,4	+ 131,0	125,6
Jami ishlab chiqarish fondlari	2016,1	2177,6	+ 161,5	108,0
Umumiy rentabellik darajasi, %	19,4	24,8	+ 5,4	-
Sof foyda	207,8	300,1	+ 92,3	144,4
Sof rentabellik, %	10,3	13,8	+ 3,5	-
Tovar mahsulotning to`la tannarxi	1047,3	2028,8	+ 981,5	193,7
Mahsulotning rentabellik darajasi, %	37,2	28,2	- 9,0	-

Manba: «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Shuning uchun nisbiy ko`rsatkichlarni aniqlashga ehtiyoj tug`iladi. Bu ko`rsatkich - rentabellik darajasidir. Rentabellik xo`jalik yuritishning yangi tizimida korxonalar faoliyatini belgilovchi eng muhim sifat ko`rsatkichlaridan biridir. 5 - jadvalda mashinasozlik tarmog`i tarkibiga kiruvchi korxonalarda

rentabellik darajasining tahlili keltirilgan. Jadvaldan ko`rinib turganidek rentabellikning uch turi: umumiy rentabellik, sof rentabellik va mahsulot rentabelligi aniqlandi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko`ra korxonalarining umumiy rentabelligi 2011 yilda 19,4 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 2016 yilga kelib 24,8 foizga etdi yoki 5,4 foizga oshdi. Sof rentabellik darajasi 2011 yilga nisbatan 3,5 foizga oshdi. Bu ko`rsatkich assotsiatsiya bo`yicha juda ham past darajada, chunki sanoat ishlab chiqarishida sof rentabellikning 10 - 13 foiz bo`lishi korxonalarining ishlab chiqarishni tashkil qilish, mahsulot sotish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, mahsulot assortimentini yangilash borasida olib borilayotgan tadbirlari ayanchli ahvoldaligidan dalolat beradi. Mahsulotning rentabellik darajasi 2010 yilga nisbatan 9,0 foizga kamaydi, buning asosiy sababi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining oshganligidir. Hozirgi kunda asosiy e`tibor mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va uning fan sig`imini oshirish, arzon va sifatli xom ashyo konstruktsiyalaridan foydalanishni yo`lga qo`yishga qaratilmog`i lozim.

Amalga oshirilgan marketing tadqiqoti va tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, tarmoq korxonalarining ichki imkoniyatlari etarli darajada, faqatgina shularni to`g`ri va samarali yo`lga solish korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

## **2.2. Korxona tashqi iqtisodiy faoliyatida raqobatbardoshlikni oshirishga ta`sir etuvchi omillar tahlili**

Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, jahon xo`jalik tizimiga qo`shilish borasida mas`uliyatli jarayon boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida ijtimoiy ishlab chiqarishning o`sishi faqat respublikaning resurs imkoniyatlariga mo`ljallangan bo`lib, iqtisodiy taraqqiyot muvozanatsiz va nokompleks tarzda kechdi, ijtimoiy omillar e`tiborga olinmadni, noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarining moddiy-texnika bazasi past darajada qolib keldi. Xalqaro tajribalarni va milliy eksportni rivojlantirish holati va tendentsiyalarini, yuzaga kelayotgan jahon bozori vaziyatlarini inobatga olgan

holda, Vazirlar Mahkamasi tashqi iqtisodiy aloqalar majmuasi tomonidan mamlakat milliy eksport salohiyatini samarali rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar bilan ta`minlashga yo`naltirilgan eksport strategiyasini ishlab chiqmoqda. Hozirgi keskin xalqaro raqobat sharoitida o`z mahsulotini xorijga sotayotgan ishlab chiqaruvchilarimiz eksportini kreditlash hamda eksportga mahsulot etkazib berishni sug`urtalash mexanizmlarini qo`llash amaliyotini kengaytirish kerak.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ikki muhim vazifani hal etishga xizmat qiladi. Birinchi vazifa bajarilishining oxirgi natijalari eksportni ko`paytirishdan iborat. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- tashqi bozorlarda milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning doimiy bo`lishini ta`minlash;
- barcha eksport tovarlari bo`yicha tashqi bozor kon`yunkturasini marketing asosida taqiq qilish;
- tovarlarni reklama qilish va iste`molchilarga etkazib berish ishlarining operativ tizimini tashkil etish.

Ikkinchi vazifa importni muvofiqlashtirishga qaratilgan bo`lib, u O`zbekiston korxonalariga kerak bo`lgan, lekin mamalakatimizda ishlab chiqarilmaydigan mashinalar, uskunalar, texnologik zaxiralarni marketing asosida tadqiq etish orqali hal etiladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovar (ish, xizmat)lar eksportini rag`batlantirish bo`yicha qo`srimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi Farmoni e`lon qilingandan so`ng korxonalar eksporti ancha yaxshilandi. Tashqi bozor kon`yunkturasini o`rganish, kompleks marketing tadqiqotlari olib borish, reklamani amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyatda o`z xususiyatlariga ega. chunki har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy xususiyatlari, iste`molchilar tarkibi, siyosiy va madaniy jihatlari tubdan farq qiladi. Eksport faoliyatini amalga oshirishni mo`ljallagan korxona albatta bularni hisobga olmasdan iloji yo`q. SHu o`rinda eksport marketingi ustida so`z yuritamiz. Eksport marketingi - bu tashqi bozor holatini o`rganish, tashqi bozor iste`molchilarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida eksport tovar siyosatini

ishlab chiqish va amalga oshirish tizimidan iborat. Eksport marketingining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo`ladi:

tashqi bozorni kompleks tadqiq qilish va segmentlash;

eksport tovar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

maqsadli segmentga chiqish strategiyasi va taktikasini yaratish va amalga oshirish:

- xorijda xususiy ishlab chiqarishni tashkil qilish orqali;
- franchayzing shartnomasi asosida;
- qo`shma korxona tashkil qilish asosida;
- mustaqil vositachilar orqali.

Eksport marketingining shart-sharoitlari, tamoyillari shuningdek unga qo`yiladigan talablar ichki marketingga nisbatan bir muncha oddiyroq ham, murakkab ham bo`lishi mumkin, bu albatta tovar chiqarilayotgan mamlakatning xususiyatlariga bog`liq. Eksport marketingida eksportyor korxonaning imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Huddi shu nuqtai-nazardan biz «O`zelteksanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining eksport faoliyatida zamonaviy marketingdan samarali foydalanishni tahlil qilamiz. Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan respublikamizning eksport salohiyatini yanada oshirish, eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish, jahon bozori talablariga mos keladigan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hajmini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo`yicha izchil siyosat olib borilmoqda. Korxonaning eksport imkoniyatlarini marketing tadqiqotida o`rganilishi lozim bo`lgan asosiy yo`nalishlarni bizning fikrimizcha quyidagilarga bo`lish mumkin:

korxonaning tashqi bozordagi faoliyati;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xususiyatlari;

tashqi bozorlarning xususiyatlari;

mahsulotni sotish imkoniyatlarining mavjudligi (korxonaning savdo uyi, vositachilari yoki hamkor kompaniyaning sotish kanallaridan foydalanish imkoniyatlari).

Respublikamiz mashinasozlik tarmog`ining eksport faoliyatini tahlil qilar ekanmiz birinchi navbatda eksport va importning jug`rofiy xususiyatiga e`tibor beraylik. MDH davlatlaridan Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog`iston, Turkmaniston, Tojikiston korxonalari asosiy hamkorlar hisoblangan. Xorijiy mamlakatlardan Bolgariya, Buyuk Britaniya, Misr, Hindiston, Isroiil davlatlari bilan doimiy tovar oldi-sotdi aloqalari mavjud.

Etakchi eksport qiluvchilar tomonidan mamlakatning hamma korxonalari uchun qiziqish uyg`otuvchi chet el infratuzilmalaridan samarali foydalanish tajribalari to`plangan. Chet ellik hamkorlar bilan aloqalarni kuchaytirish maqsadida «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasida marketing xizmatlari va eksport bo`limlari tashkil qilingan.

## **6 - jadval**

### **Mashinasozlik tarmog`i mahsulotlari asosiy turlari bo`yicha eksport faoliyatining tahlili**

<b>Mahsulotlarning nomi</b>	<b>Mahsulot eksporti (ming AQSH dol.)</b>					
	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Qishloq xo`jaligida ishlataladigan asbob-uskunalar	170,4	165,9	189,7	245,8	270,4	289,1
Metallni qayta ishlovchi va qirquvchi asboblar	143,0	121,2	114,6	105,7	143,1	157,4
Olmos asboblar	207,9	211,3	236,4	243,6	227,9	210,9
Suv qozonlari	4,0	7,5	9,7	11,3	14,0	21,6
Isitish qozonlari	6,5	10,2	14,7	19,6	16,6	18,7
Markazdan qochirma nasoslar	408,6	456,7	400,2	412,6	448,6	501,3
Kompressorlar uchun nasoslar	28,0	30,4	32,3	35,6	38,0	43,4
YUk ko`taruvchi liftlar	424,1	475,3	458,6	695,1	728,9	1021,6
Kompressorlar	4009,2	4125,3	3785,3	4000,8	3119,6	3064,0
Ko`prikli kranlar	865,0	856,40	796,5	1040,5	1856,2	2052,4
Engil sanoat u/n uskunalar	123,4	100,2	117,4	120,9	193,4	203,4
Elektrmotorlar	790,5	1045,6	950,8	1142,4	1790,5	2106,7
Transfarmatorlar	6100,4	5807,7	6110,2	6340,7	6100,4	5542,1
Jami:	13281,0	13413,7	13216,4	14414,6	14947,6	15232,0

Manba: «Oz`eltexsanoat» assotsiatsiyasi ma`lumotlari asosida hisoblangan.

Ushbu bo`linmalar tarmoqning eksport imkoniyatlarini tahlil qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash, eksport

qilinayotgan mahsulotlar nomenklaturasini ko`paytirish, marketing tadqiqotlari o`tkazish ishlarini olib bormoqdalar. - jadvaldan ko`rinib turganidek, tarmoqning eksport faoliyati hali qoniqarli darajada emas. Metallni qayta ishlovchi va qirquvchi asboblar, suv qaynatish qozonlari, markazdan qochirma nasoslar, kompressorlar uchun nasoslar, ekskovatorlar, engil sanoat uskunalari, elektr motorlari, traktorlarning 65-70 foizi, vakuum nasoslarining barchasi chetdan keltiriladi. Demak, tarmoq tashqi iqtisodiy faoliyatida tubdan o`zgarish qilish vaqtি keldi, chunki xorijdan keltirilayotgan har bir uskuna qat`iy valyutaga xarid qilinadi, korxonalarning hisob raqamlarida valyuta bo`lishi uchun ko`proq mahsulotni eksport qilish lozim, shundagina zamonaviy uskuna yoki texnika sotib olinadi.

Bugungi kunda «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - bu har bir korxonaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ma`lum xorij bozoriga kirishning dasturini yaratishdan iborat. Bu o`rinda bizning fikrimizcha to`liq tarmoqni yoki korxonani to`laligicha eksportga ixtisoslashtirish qiyin kechadi, shuning uchun birinchi bosqichda eksportga ixtisoslashtirilgan tsex, uchastkani barpo qilish, ularni zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta`minlashni yo`lga qo`yish kerak. Ikkinchi bosqichda esa eksportga ixtisoslashtirilgan korxonalarni tashkil qilishga kirishish mumkin, bu o`z navbatida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va jadallik bilan jahon bozoriga kirib borishga imkon beradi. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi, uning assortimenti muhim rol o`ynaydi. Tovarning raqobatbardoshligini baholashda bir qancha usullardan foydalilanadi.

Masalan, iste`molchilar tovarlarni qiyoslash va tanlash jarayonida o`zları uchun foydali samara (R) sotib olish va foydalanish xarajatlari (S) (solishtirma foydali samara) ga nisbatan shunga o`xshash tovarlarga qaraganda eng yuqori bo`lgan tovar yuqori baholanadi, shuning uchun bir tovarning jami boshqa tovarlarga nisbatan ustunligini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$K = \frac{R}{S} \longrightarrow \max.$$

Xuddi shu ifoda umumiy ko`rinishda tovar raqobatbardoshligining sharti hisoblanadi. Tovarning iste`mol xususiyatlari qanchalik yuqori bo`lib, iste`mol narxi (iste`mol xarajatlari) past bo`lgan tovar raqobatbardosh bo`ladi. Afsuski mashinasozlik tarmog`ida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning aksariyat qismi bunday talabga javob bermaydi. Davlat standartlashtirish va sertifikatsiyalash agentligining ma`lumotlariga ko`ra 2016 yilda eksport qilingan «O`zeltexsanoat» mahsulotlarining 17,5 foiziga iste`molchilar tomonidan norozilik bildirilgan, bu o`z navbatida korxonalarining tashqi bozordagi nufuziga aks ta`sir ko`rsatadi.

Eksport mahsulotlari assortimenti tizimini shakllantirish bevosita mahsulotlar assortimentini rejalashtirish bilan bog`liq va bu o`z ichiga quyidagilarni olishi lozim:

xorijiy iste`molchilarining joriy va kelajakdagi ehtiyojlarini aniqlash, ularni istiqbollash;

raqobatchi firma va mahsulotlarni aniqlash;

iste`molchilarining korxona tovarlariga bo`lgan munosabatlarini baholash;

mahsulotlar assortimentini yangilash, takomillashtirish va innovatsiya siyosatining aniq yo`nalishlarini belgilash;

mahsulot bahosi, tannarxi va rentabelligi darajasini tahlil qilib borish;

reklama va sotishni rag`batlantirish bo`yicha tadbirlar ko`rish.

Eksport tovarlari assortimentini boshqarish ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari, bozorni tadqiq qilish, sotishni tashkil qilish, servis xizmati ko`rsatish, reklama kabi tadbirlar bilan birgalikda olib borilgandagina kutilgan samarani beradi. Xorij kompaniyalari tajribasidan ma`lumki, ko`p hollarda firmalarda marketing bo`yicha kengash tuziladi, uning tarkibiga korxona tsex va bo`limlarining boshliqlari a`zo bo`ladi. Kengashning asosiy vazifasi - eksport assortimentini tahlil qilish, rentabellik darajasi past bo`lgan tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, yangi va takomillashtirilgan tovarlarni joriy qilish, moliyaviy mablag`lar ajratish va boshqalar. Bizning korxonalarimizda ham

marketing bo`limlari mavjud, afsuski ular bajaradigan vazifalar doirasi juda ham torligicha qolmoqda. Tashqi bozorlarni o`rganish, iste`molchilar ehtiyojini aniqlash, ular bilan doimiy aloqada bo`lish, yarmarka va ko`rgazmalarda ishtirok etish masalalari talabga javob bermaydi.

Yuqorida keltirilgan ma`lumotlar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

assotsiatsiyaning tashqi savdo oboroti 2016 yilda 184 mln. 434 ming AQSH doll.ni tashkil qildi, shundan eksport 15 mln. 232 ming doll.ni, import esa 169 mln. 202 ming doll. ni tashkil qildi;

assotsiatsiya eksportining 23 foizi, importining esa 4 foizi MDH mamlakatlariga to`g`ri kelar ekan.

Demak, aytishimiz mumkinki assotsiatsiya eksport faoliyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasida qaralmas ekan, bunday nomutanosiblikni tugatish qiyin kechadi va ko`pgina korxonalar raqobatga bardosh beraolmasdan bankrotlikka uchraydi. To`g`ri, importning haddan ziyod oshib ketganligiga asosib sabab, yangi qo`shma korxonalarning tashkil qilinishi, mavjudlarining zamonaviy texnikalar bilan qayta jihozlash ham bo`lishi mumkin, ammo import qilingan tovarlar assortimentini tahlil qiladigan bo`lsak, holat boshqacha. Masalan, 55,065 mln.doll.ga - traktorlar, 23 mln.doll.dan oshiqroqqa nasoslar, 8,911 mln.doll.ga elektr motorlar, 3,098 mln.doll.ga engil sanoat uskunalari uchun ehtiyot qismlar xarid qilingan. SHuning o`zi 90 mln.doll.dan oshiq yoki importning 53,2 foizini tashkil qiladi. Faqatgina 70 mln.doll. ga engil sanoat uchun uskunalar sotib olingan xolos. Bu mahsulotlarni assotsiatsiya tarkibiga kiruvchi korxonalarda ishlab chiqarsa bo`ladi, ayni vaqtida ishlab chiqarilmoqda ham. «Tashtekstilmash», «O`zbektekstilmash», «Qo`qontekstilmash» kabi to`qimachilik va engil sanoat mashinasozligi korxonalari nafaqat O`rta Osiyoda, balki MDH da, Misr, Isroi, Xitoy, Birlashgan arab amirliklari, Eronda ham mashhur hisoblangan.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishda iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlarini o`rganish muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdoning iqtisodiy samaradorligi bir qator ko`rsatkichlar tizimi bilan xarakterlanadi, bu

bog`liqlik ilovada keltirilgan. So`nggi yillarda xalqaro savdoda davlatlararo tovarlar va sarmoyalarning samarali harakatini ta`minlovchi xalqaro korporativ korxonalar ulushi ortib bormoqda. Korporatsiyalar tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing strategiyasi bo`yicha savdo-sotiq bozorlarida doimiy izlanishlar olib boradi, o`z mahsulotlarini o`tkazish yo`lida hatto, noan`anaviy siyosat olib boradi. SHu bilan birga milliy savdo tartibi bilan bog`liq savdo xarajatlarini qisqartirishning samarali shakllari va uslublarini qo`llaydi. Hozirgi raqobat kurashi keskinlashayotgan davrda, eksportni tashkil etishda yuqori malaka bilan yondashilmasa, tashqi iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishishning hech ham iloji yo`q.

Korxonaning iqtisodiy faoliyatini marketingli tadqiq qilishning yana bir muhim bosqichi bu ilmiy-tadqiqot va sarmoya siyosati bo`yicha olib borilayotgan tadbirdir. Ta`kidlab o`tganimizdek respublikamiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda mashinasozlik tarmog`i asosiy o`rinlardan birini egallaydi, chunki zamonaviy texnika-texnologiya, nau-xou, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, boshqarish usullari avvalam bor shu yo`nalishda yuzaga keladi. Ikkinchijihatdan xalq xo`jaligining boshqa tarmoqlari uchun mashinasozlik tarmog`i ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqa xizmat qurollari etkazib beradi. SHu jihatdan mashinasozlik tarmog`ini jadal rivojlantirish jahon bozori talablariga mos keladigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta`minlovchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Respublikamiz ko`p jihatdan agrar mamlakat, qishloq xo`jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, raqobatbardosh qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, eng avvalo, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyaga bog`liq. Bu o`z navbatida, tarmoqda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini yaxshi yo`lga qo`yilganligida, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilishning holatida namoyon bo`ladi. “O`zeltexsanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda o`tkazilgan marketing tadqiqotlari natijasi shuni ko`satadiki, korxonalarning ko`pchiligi texnologik va innovatsiya tadbirlari

jihatdan qoloq, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanilmaganligi, asosiy fondlarning moddiy va ma`naviy jihatdan eskirganligi, yangi tovarlarni ishlab chiqarishga joriy qilish darjasи pastligi tufayli tovarlar o`z xaridorini topa olmayapti. Korxonalarda o`tkazilgan tanlanma so`rov natijasiga ko`ra 12 ta korxonadan 6 tasida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarish apparatini takomillashtirish, yangi tovarlar ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bo`yicha faoliyat olib borilmagan. Ko`pgina korxonalarda innovatsiya jarayoni to`liq amalga oshirilmaydi, ya`ni:

ilmiy-tadqiqot ishlari - 10 foiz korxonalarda;

loyiha konstruktorlik ishlari - 25 foiz korxonalarda;

tajriba-eksperimental ishlar - 15 foiz korxonalarda;

litsenziya, nau-xou, texnologiya sotib olish

-10 foiz korxonalarda;

yangi texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilish

-15 foiz korxonalarda;

yangi tovarlarni o`zlashtirish - 7 foiz korxonalarda.

Joriy qilingan yangi texnologiyalarning asosiy qismi energiyani tejovchi texnologiyalardir. Tarmoqda yangi tovarlarni o`zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan tovar mahsuloti umumiy hajmining 12,7 foizini tashkil etmoqda. SHu o`rinda bir misol keltiramiz: xorij iqtisodchilarining tahliliga ko`ra texnika taraqqiyotini litsenziya sotib olish 7 - 8 yilga, nau-xou 3 - 4 yilga, yangi texnika esa faqatgina 2 yilga uzaytirar ekan8. SHuning uchun ko`plab xorij kompaniyalari patent va litsenziya sotib olishga asosiy e`tiborni qaratadilar. AQSH kompaniyalariga to`g`ri keladigan bir yillik patentlarning - 40 foizini 30 ga yaqin yirik transmilliy korporatsiyalar sotib oladi. Masalan, «Jeneral elektrik» o`rtacha bir kunda 3 ta patent oladi, har kuni 1 ta patent sotib olib, besh kunda 1 ta patent sotadi; IBM kompaniyasi 2 ta patent oladi, uch kunda 1 ta patent sotib oladi va etti kunda 1 ta sotadi; Yuqorida keltirilgan marketing tadqiqoti natijalari shuni ko`rsatadiki, respublikamiz mashinasozlik korxonalarining ko`pchiligi ishlab chiqarayatgan

mahsulotlarga talabning pastligiga asosiy sabab, ularning bahosi va iste`mol xususiyatlariga ko`ra raqobatbardoshli emasligidadir. Bunday ahvolni xalq xo`jaligining boshqa tarmoqlarida ham kuzatish mumkin. Keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra xulosa qilishimiz mumkinki, respublikamizda patent va litsenziyalar ahvoli juda ham achinarli holda. Ayniqsa mashinasozlik tarmog`ida litsenzion shartnomalar 2011 yilga nisbatan 2 taga oshgan, elektronika sanoatida esa 2013 yilda 4 ta bo`lgan bo`lsa, 2016 yilda esa 3 taga tushdi. Bizning fikrimizcha buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- yangilik yoki ixtironi yaratish uchun iqtisodiy-texnikaviy shart-sharoitning past darajadaligi;
- ratsionalizator va ixtirochilar uchun moddiy manfaatdorlik darajasining pastligi;
- ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy qilish uchun moliyaviy mablag`larning yo`qligi;
- vechur biznesi bilan shug`ullanuvchi davlat yoki xususiy firmalarning yo`qligi va boshqalar.

«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga uchta ixtisoslashtirilgan konstruktorlik byurosi: «Paxta tozalash uskunalari bo`yicha ixtisoslashgan konstruktorlik byurosi (IKB)», «Mikotem» - to`qimachilik mashinalari yaratishga ixtisoslashgan konstruktorlik byurosi va «O`rash va qadoqlash uskunalari bo`yicha tajriba - konstruktorlik va texnologik byuro» si (OKBRU) kiradi. Bundan tashqari Toshkent kimyoviy texnologiya ilmiy tadqiqot instituti va «O`zengilsanloyiha» loyiha instituti ham assotsiatsiya tarkibiga kiradi. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot va IKB larda ishlayotgan ishchi - xizmatchilar soni 909 kishini yoki assotsiatsiya umumiy ishchi-xizmatchilar sonining 11 foizini tashkil qiladi. 2016 yilda davlat byudjeti tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun 8316 ming so`m ajratilgan. IKB va ilmiy tadqiqot institutlarida mahsulotning yoki texnika va texnologiyaning yangi turi yaratiladi, mavjudi takomillashtiriladi, ammo ishlab chiqarishga joriy qilishda korxonaning mablag`i yo`q. Masalan, fanga sarflanadigan xarajatlar va ilmiy natijalarни ishlab chiqarishga joriy qilishga qo`yiladigan kapital mablag`lar

o`rtasidagi nisbat, respublikamiz bo`yicha sanoatda 1 : 0.79, rivojlangan xorij mamlakatlarida esa 1 : 10. Buni izohlashning hojati yo`q, deb o`ylaymiz. Assotsiatsiya tarkibiga kiruvchi OKBRU zavodi nafaqat respublikamizda, balki Markaziy Osiyoda serqirrali va sifatli ishlayotgan tajriba-konstrukturlik korxonalaridan biri. Korxonaning 90 foizga yaqin mahsuloti Rossiya, Ukraina korxonalariga va eksportga SHarqiy Evropa mamlakatlariga jo`natilgan. Hozirgi kunda korxona xodimlari yangidan-yangi zamонавиу о`rash va qadoqlash uskunalarini yaratish, iste`molchilarining talab va ehtiyojlariga mos keladigan uskunalarini ishlab chiqarish bo`yicha faoliyat olib bormoqdalar. Korxonaning oxirgi ixtiolaridan: bu aktsiz markalarini yopishtirish bo`yicha uskunaning yaratilishi; Twist - off tizimi bo`yicha ishlovchi o`rash va qadoqlash uskunasi. Korxonaning mahsulotlari raqobatbardosh va o`z xaridarini uzoq kutmaydi, buning asosiy sababi: birinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e`tibor berilayotganligi; ikkinchidan, ishchilar va xodimlarning moddiy rag`batlantirishni to`g`ri tashkil qilinganligi; uchinchidan, doimiy ravishda va yana kompleks holda marketing elementlaridan foydalanishning to`g`ri yo`lga qo`yilganligidir. Ammo bunday korxonalar barmoq bilan sanarli, bu masalani echishning asosiy yo`llaridan biri bizning fikrimizcha moliya-sanoat guruh (MSG) lari tashkil qilishdir.

Moliya-sanoat guruhlari tarkibiga tijorat yoki maxsus banklar, sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot va IKB lar, sug`urta va lizing kompaniyalari kirishi mumkin. Faqat shu holdagina fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish, hamda ularni ishlab chiqarishga bevosita joriy qilish uchun imkoniyat yaratiladi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini davlat tomonidan qo`llab quvvatlash siyosatini kuchaytirish lozim. Respublikamizning xususiyatlaridan kelib chiqib moliya-sanoat guruhlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta`minlashda turli usullardan foydalanish mumkin. Masalan, sherikchilik, davlat-xususiy moliyalashtirish, bank tomonidan foizsiz kreditlar berish, venchur korxonalari tashkil qilish va hokazolar. Venchur (inglizcha - venture - tavakkalchilik) korxonalari - kichik biznesning bir turi, ilmiy muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish, ishlab

chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish bilan shug`ullanadi. Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, vechur korxonalari uchun yangiliklarni joriy qilish, uskunalarni tez-tez yangilash, mahsulotlar turini jadal yangilash xususiyatlari xosdir. Rivojlangan mamlakatlarda vechur kompaniyalari tomonidan sanoatda yuz beradigan yangiliklarning - 45 foizi, ta`minot tizimida - 32 foizi, agrar sektorda -39 foizi amalga oshiriladi. Elektronika sohasi bo`yicha jami mahsulotning - 29 foizi, tibbiyot vositalari va farmatsevtika mahsulotlarining - 31 foizi, kimyo va neft-kimyo texnologiyalarining - 14 foizi vechur kompaniyalari jimmasisiga to`g`ri keladi. Bu kompaniyalar raqobatbardoshligining asosiy omillari: texnik va texnologik yangiliklarni qo`llash, iste`molchilar talablariga mos keladigan original mahsulotlarni yaratish.

Kompaniyalar ishchi-xodimlarining 70 foizi bu - muhandislar va yuqori malakali olimlar, shu bilan birga xarajatlarning asosiy qismi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadi. Vechur kompaniyalari tarkibiga marketing, injiniring, konsalting, reklama bilan shug`ullanuvchi, pul bilan ta`minlashga yordam beruvchi firma va kompaniyalar ham kirishi mumkin. Bu borada respublikamizda birinchi qadamlar qo`yilmoqda, ammo ularning soni juda ham kam va faoliyat sohasi cheklangan. Masalan, «Nuron LTD», «Texnezis - info», «Voston» innovatsiya kompaniyasi va boshqalar. Rivojlangan mamlakatlarda esa bunday kompaniyalar juda ham ko`p, masalan, Oksford universiteti (Angliya) atrofida 261 dan ortiq vechur kompaniyalari faoliyat ko`rsatadi, yoki «Jeneral elektrik» kompaniyasi 9 ta tashqi va 12 ta ichki vechur firmasiga ega. Mashinasozlik sanoati eksport salohiyatini yoki umuman respublikamiz eksport salohiyatini oshirish ko`p jihatdan sarmoya siyosatiga ham bog`liqdir. 2015 yilda respublikamiz bo`yicha sanoatda mashina-uskunalar ishlab chiqarishga qo`yilgan kapital mablag` miqdori - 28 foizni, qurilish-mantaj ishlariga esa - 59 foizni tashkil qildi. Germaniyada esa kapital mablag`larning sarfi aksincha 44 va 30 foizni tashkil qiladi. Demak, respublikamizda ham kapital mablag`larni sarflash tizimida tubdan o`zgartirish kiritish vaqtি keldi. Bu borada ayniqsa xorijiy sarmoyalarni ishlab chiqarishning turli sohalariga, sanoatning ustuvor

yo`nalishlariga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz bo`yicha 2011 yilda 932,7 mln.so`m, 2013 yilda 12,4 mlrd.so`m, 2015 yilda 60 mlrd,so`m, 2016 yilda esa 83,5 mlrd.so`mdan oshiqroq bevosita xorijiy sarmoyalar iqtisodiyotning turli sohalariga jalb qilindi. Respublikamizda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo`yicha barcha chora-tadbirlar, qulay sarmoya muhiti vujudga keltirilmoqda. SHu bilan birga iqtisodiy islohotlar ham o`z samarasini bera boshladi, ularning asosiylari:

iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorining barqarorlashgani;

oylik inflyatsiya darajasining 2-3 foizga tushirilganligi va moliyaviy barqarorlikning ta`minlanganligi;

milliy valyutamiz so`mning kursini barqarorlashganligi;

ko`p miqdorda valyuta mablag`larining jamg`arilganligi;

iqtisodiyotning nodavlat sektorining kengaytirilganligi shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda xorijiy sarmoyalar ishtirokida tuzilgan korxonalar faoliyatini rag`batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Bu avvalo, erkin iqtisodiy zonalarni barpo etish va ularning faoliyat ko`rsatishining chegarali sharoitlarini belgilagan «Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida» gi qonun (1996 yil 25 aprel) bo`lib, ular mamlakatimizga xorijiy kapital, ilg`or texnologiya, zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb etish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. «Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni va ularning faoliyatini rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi 2014 yil 31 maydagi, «Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo`shimcha rag`batlantirish omillari va imtiyozlar to`g`risida» gi 1996 yil 30 noyabrdagi, «Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirishni va ularning sarmoya bilan bog`liq faoliyatini rag`batlantirishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida» gi 1996 yil 13 dekabrdagi, «To`g`ridan-to`g`ri chet el investitsiyalarini huquqiy himoyalashni kuchaytirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» 2012 yil 205-sonli qarori va bir qator farmoyishlar muhim ahamiyatga egadir. Mazkur chora-tadbirlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular hukumatning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan, ayniqsa eksportga

yo`naltirilgan va import o`rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xorijiy sarmoyalni korxonalarini har tomonlama qo`llab-quvvatlashga qaratilgan sarmoya siyosatining mohiyatini umumlashgan shaklda aks ettiradi. 2008 yil 1 yanvar holatiga ko`ra respublikamizda 4 mingdan ortiq qo`shma korxona ro`yxatdan o`tkazilgan, shulardan hozirgi kunda 2581 tasi faoliyat ko`rsatmoqda.

Xorijiy sarmoyalni qo`shma korxonalar yalpi eksportining hajmi 2016 yilda respublikamiz eksporti umumiyligi hajmining 28,8 foizini tashkil etdi. Eksport hissasi mazkur korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot umumiyligi hajmida 37 foizni tashkil etdi. Tashkil qilingan qo`shma korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati juda yuqori darajada, hozircha ko`pchiligi ishlab chiqarish hamda sotishning maqbul darajasiga chiqishga ulgurmagan, marketing nuqtai-nazaridan aytganda ishlab chiqarishni tashkil qilish va ommaviy ishlab chiqarishga o`tish bosqichida. «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi qo`shma korxonalarining umumiyligi nizom jamg`armasi 2,8 mln.doll.ni tashkil qiladi. 2016 yil davomida qo`shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiyligi hajmi 11,4 mln.doll.ni, hamda 2011-2016 yillar davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 22,6 mln.doll.ni tashkil qildi.

Barcha korxonalar samarali faoliyat ko`rsatmoqda, korxonalar bo`yicha mahsulot ishlab chiqarishning o`rtacha o`sish darajasi 36,4 foizni, mehnat unumdarligi 31,9 foizni, umumiyligi rentabellik darajasi 10,5 foizni tashkil qildi. Qo`shma korxonalarining rentabellik darajasi olingan foydani shu davr mobaynida qurilishga sarf qilingan yalpi xarajatga nisbati bilan aniqlandi. Korxonalarining 2016 yilda ishlab chiqargan yalpi mahsuloti hajmi solishtirma baholarda 45 mln.so`m bo`lgan bo`lsa, bu assotsiatsiya bo`yicha 7,3 foizni, eksport qilinadigan tovarlar umumiyligi miqdorida esa 9,1 foizni tashkil qiladi.

«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasida qo`shma korxonalar sonini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo`yicha diqqatga sazovor ishlar olib borilmoqda. Masalan, hozirgi kunda «Andijonirmash» va «Andijongidromash» zavodlari bazasida engil avtomobillar uchun o`rindiqlar, baklar va boshqa ehtiyyot qismlari ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi. «Asbobsoz» ochiq turdagisi hissadorlik jamiyatini

huzurida tashkil qilingan O`zbekiston - Isroil «Almanimb» qo`shma korxonasi Isroildan keltirilayotgan butlovchi materiallar asosida o`rash - qadoqlash uskunalarini yig`ishni yo`lga qo`ydi. Rossiyaning “Perevest-invest” kompaniyasi bilan hamkorlikni yo`lga qo`ygan “Samarqand liftsozlik zavodi”da yangi turkumdag`i yo`lovchi va yuk tashish liftlari ishlab chiqarilmoqda. Ushbu sanoat korxonasi besh yil mobaynida 7 million AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritib, zavodni zamonaviy texnologiyalar bilan ta`minlash, ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi kunda 3 turdag`i yo`lovchi va 7 turdag`i yuk tashish liftlari tayyorlana boshlandi. 2025 yilda korxonada kamida 6 mingta lift tayyorlanadi. Mahalliylashtirish dasturiga asosan, viloyatdag`i 20 ga yaqin korxonalar bilan hamkorlik yo`lga qo`yilgan.

Korxonaning 80 foiz mahsuloti eksportga mo`ljallangan. Bulardan tashqari assotsiatsiyada 30 dan oshiq sarmoya loyihasi tayyor, alohida loyihamalar bo`yicha hamkorlar aniq, birinchi bosqich kelishuvlari amalga oshirilgan. Masalan, «SINO» Samarqand muzlatgichlar zavodi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha sarmoya loyihasini tayyorladi, bunga ko`ra bir yilda 250 ming dona yuqori sifatli muzlatgichlar va 500 ming dona polistirol ishlab chiqarish nazarda tutilgan, agar zavod loyihami amalga oshiradigan bo`lsa, yangi texnologiyalarni qo`llash evaziga yiliga 2 mln.doll. tejar ekan. Loyihaning qiymati 5,2 mln.doll. Amerikaning «Deloytt end Tush» konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilish va yo`l qurilish texnikalari, rossiyaning «Kamaz» va «Vityaz» korxonalarini bilan yuk ko`tarish mexanizmlari ishlab chiqarish bo`yicha loyihamalar tasdiqlandi.

Kimyo va neft-gaz tarmoqlari uchun uskunalar amerikaning «Pepe» injiniring kompaniyasi va vengriyaning «DKG-IST» korxonasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarishga kelishildi. Assotsiatsiyada mavjud sarmoya loyihamalarining ayrimlari keltirilgan. Biz ayrim loyihamarnigina misol keltirdik holos, bulardan tashqari AQSH ning «Lyummus korporeyshn» kompaniyasi bilan paxtani tozalash va qayta ishslash sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish, Turkiyaning «Archelik» kompaniyasi bilan muzlatgichlar ishlab chiqarish, Yaponianing «Knematsu korporeyshn» va Rossiyaning «Kuznetsktekstilmash» zavodlari bilan to`qimachilik

uskunalarini ishlab chiqarish bo'yicha kelishuvlar olib borilmoqda. Assotsiatsiyada mavjud 30 ta sarmoya loyihasini amalga oshirish uchun umumiy hisobda 123,7 mln. doll. mablag` talab qilinadi.

Shundan korxonalarining o'z mablag`lari va bank kreditlari 100,0 mln.doll.dan oshiqroq, hamda 20,0 mln.doll.dan oshiq bevosita xorijiy sarmoya jalb qilish nazarda tutilmoqda. Agarda loyihalar amalga oshiriladigan bo`lsa, import o`rnini qoplovchi va eksportga yo`naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar miqdori keskin oshadi, hisob-kitoblarga ko`ra assotsiatsiya bo'yicha yiliga 181,5 mln.doll.lik mahsulot ishlab chiqarish va shu jumladan eksportga 67,7 mln.doll. mahsulot chiqarish imkoniyati tug`uladi. Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar tashkil qilish raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo`lga qo'yish bilan bir qatorda, yana ko`plab vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha bu vazifalar quyidagilardan iborat:

1) ilg`or texnika va texnologiyaning kirib kelishiga yo'l ochiladi, bu o'z navbatida mahsulot sifatini yaxshilashga, assortimentini kengaytirishga, iste'mol xususiyatlarini oshirishga olib keladi;

2) ishlab chiqarishni tashkil qilishning va boshqarishning ilg`or usullarini o`zlashtirishga imkon beradi, qo'shma korxona ishtirokchisi yoki xorijiy hamkor o`zi bilan boshqarishning ilg`or usullarini olib keladi, shu bilan birga mahalliy kadrlarni xorijning zamonaviy tajribalaridan bahramand bo`lishiga ko`maklashadi;

3) tayyor mahsulot bilan tashqi bozorga chiqishga, tovar markasidan, sotish kanallaridan foydalanishga imkon yaratiladi. Juhon tajribasidan ma'lumki, dunyo bozoriga kirish juda katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, bozor kon'yunkturasini o'rGANISH, sotish kanallarini tashkil qilish, reklamani amalga oshirish, mahsulotni saqlash va transport xarajatlari, bularning barchasi katta mablag` va mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

«O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasida sarmoya siyosatini amalga oshirishning samarali va ustuvor yo`nalishlari bizning fikrimizcha quyidagilardan iborat: a) hissadorlik jamiyatlarini aktsiyalarini xorijiy kompaniya va firmalarga sotish; b) korxona aktsiyalarining boshqaruv paketini sotib olishga qiziquvchi xorijiy

sarmoyadorlar uchun maxsus tender tanlovi asosida aktsiyalar sotuvini tashkil qilish; v) qo`shma korxonalar tashkil qilish; g) xorijiy kreditlarni jalb qilish.

Biz yuqorida qo`shma korxonalar tashkil qilish bo`yicha olib borilayotgan faoliyatni tahlil qildik. Ammo korxonalarning aktsiyalarini xorijiy sarmoyadorlarga sotish holati hali juda past darajada. Bizning fikrimizcha sohaning kelajagini jadal rivojlantirish, sarmoya siyosatini amalga oshirish, xorijiy hamkorlarga amaliy yordam berish, axborotlar bilan ta`minlash maqsadida ixtisoslashtirilgan «Sanoat marketingi axborot markazi» (SMAM) tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu tashkiliy strukturaning faoliyati, moddiy manfaatdorligi sohaning rivojlanishi, uning taraqqiyoti bilan chambarchas bog`liq holda olib borilgan taqdirda ko`zlangan maqsadga erishish mumkin.

## **2-bob bo`yicha xulosalar**

Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda korxonaning eksport imkoniyatlarini o`rganilishi lozim bo`lgan asosiy yo`nalishlarni bizning fikrimizcha quyidagilarga bo`lish mumkin: korxonaning tashqi bozordagi faoliyati; ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xususiyatlari; tashqi bozorlarning xususiyatlari; mahsulotni sotish imkoniyatlarining mavjudligi.

O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoati, xususan “O`zelteksanoat” assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda o`tkazilgan tadqiqotlari natijasi shuni ko`rsatadiki, korxonalarning ko`pchiligi raqobatbardoshlik borasida texnologik va innovatsiya tadbirlari jihatdan qoloq, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanilmaganligi, asosiy fondlarning moddiy va ma`naviy jihatdan eskirganligi, yangi tovarlarni ishlab chiqarishga joriy qilish darajasi pastligi tufayli ishlab chiqarilgan tovarlar xorijiy raqobatchilarga nisbatan o`z xaridorini etarlicha topa olmayapti.

Assotsiatsiyada 2016-yil bo'yicha ishlab chiqarish hajmi joriy narxlarda 1 336,5 mlrd. so`nni tashkil etdi (prognoz bo'yicha 1 195,6 mlrd.so`m). 2015-yil yakuniga nisbatan o'sish surati 113,6% tashkil etdi (tasdiqlangan parametr – 112,0%).

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibi: kabel-sim mahsulotlari – 45.7%, past voltli uskunalar, kuchlanish transformatorlari – 22.9%, elektron uskunalar, maishiy texnika – 29,1%, boshqa mahsulotlar – 2.3%.

Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish o'sish sura'ti 2015 yilning yakuniga nisbatan 113.1% ni tashkil etdi.

Mashinasozlik tarmog'ida moliya-sanoat guruh (MSG) lari tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Moliya-sanoat guruhlari tarkibiga tijorat yoki maxsus banklar, sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot va IKB lar, sug`urta va lizing kompaniyalari kirishi mumkin. Faqat shu holdagina fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish, hamda ularni ishlab chiqarishga bevosita joriy qilish uchun imkoniyat yaratiladi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish lozim.

### **III Bob. O`zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishning yo`nalishlari**

#### **3.1. Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish istiqbollari**

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo`yicha ustuvor yo`nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 - 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi<sup>9</sup>. Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo`nalishlari alohida muhim o`rin egallaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan rivojlanishning “o`zbek modeli”ga va zamonaviy davlatchilikni tashkil etish yo`li va strategik tamoyillariga sodiqlik va 2015-2019 yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o`zgartirish va diversifikasiyalash dasturlarini kompleks amalga oshirilishi yalpi ichki mahsulotning 7,8 foiz o`sishini ta`minladi.

2016 yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,2 milliard dollarlik 164 yirik ishlab chiqarish ob`ekti ishga tushirildi. Jumladan, Talimarjon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug`-gaz turbinasi va Angren IESda ko`mir kukunidan foydalanishga mo`ljallangan 130-150 MVt quvvatli energiya bloki qurish, Jizzax viloyatidagi sement zavodi quvvatini kengaytirish, «Indorama

<sup>9</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”гиПФ-4947-сонли [Фармони](#). // Халқ сўзи. 8 феврал 2017 ишл.

Qo`qon tekstil» xorijiy korxonasi va «Fanteks» MCHJda yigiruv ishlarini tashkil etish, «JM O`zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida «T-250» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», shu bilan birga «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo`shma korxonasida steril shpritslar ishlab chiqarish" va boshqa loyihalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy, dasturlari doirasida 2016-yilda 28 mingdan ko`p loyiha amalga oshirildi.

Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida 2015-2019-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining 80 dan ortiq yangi turi o`zlashtirildi. 2016-yilda Mahalliylashtirish dasturi doirasida qiymati 6145,8 milliard so`mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va o`sish 2015-yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobarni, import o`rmini bosish samaradorligi 2,1 milliard dollarni tashkil qildi.

2016-yilda mahalliy xomashyo resurslarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishslash va tayyor iste`mol mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish tarmoqlari evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o`sish sur`atlariga erishildi. Xususan, to`qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 111,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 110,8 foiz, farmatsevtika mahsulot va preparatlari 123,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 129,7 foiz, boshqa noruda meneral mahsulotlar 113,8 foizga oshdi.

Sanoatni, xususan mashinasozlik sanoatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YaIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o`tgan yilga nisbatan o`rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi.

Oxirgi yillar davomida diversifikasiya qilish va iqtisodiyot sohalarini, xususan mashinasozlik sanoatini raqobatbardoshligini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib turgan va jahon bozoridagi narxlar darajasi pastligi respublikaning asosiy eksport nuqtalariga ta`sirini kamaytirishga erishildi.

Yurtimiz eksportchilarining tashqi bozordagi o`rmini saqlash, mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning salohiyatini ko`chaytirish maqsadida xorijga mahsulot etkazib berish hajmini ko`paytirish, eksport qilinadigan mahsulotlar turi va geografiyasini diversifikasiya qilish, eksport faoliyatiga yangi korxonalarni jalb etish ishlari davom ettirildi.

2016-yil davomida yana 877 korxona eksport faoliyatiga jalb etildi, mahalliy mahsulotlarni chetga etkazish geografiyasi 60 ta yangi bozorga ko`paydi. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklari, Livan, Iordaniya, Iroq, Gana, Senegal, Kot-d`Ivuar, Somali, Nigeriyaga engil avtomobillar, SHvetsiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Molodoviya va Ozarbayjonga mineral o`g`itlar, Belarus, Ozarbayjonga sport poyabzallari, Polsha va Janubiy Koreyaga charm buyumlar va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.

2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiyotni isloh etish, tarkibiy o`zgartirish, tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda ilg`or texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish bo`yicha faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 2016 yilda ham iqtisodiyotga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmining yuqori sur`atlarda o`sishini ta`minladi.

Xususan, respublikamiz iqtisodiyotida barcha moliyalash manbalari hisobidan o`zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2015 yilga nisbatan 9,6 foizga oshib, 16,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Bunda o`zlashtirilgan investitsiyalarning 53,3 foizi korxona va aholining o`z mablag`lari, 15,3 foizi xorijiy investitsiyalar va kreditlar, 10,3 foizi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlar, 4,5 foizi davlat byudjeti, 4,7 foizi davlat maqsadli

jamg`armalari hamda 4,7 foizi O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi mablag`lari hisobidan moliyalashtirildi.

O`z navbatida, iqtisodiyotga yo`naltirilgan investitsiyalar hisobidan mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari, xususan, neft-kimyo, kimyo, avtomobilsozlik, qishloq xo`jaligi va temir yo`l mashinasozligi, farmatsevtika, elekrotexnika, to`qimachilik sanoati, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalar izchil rivojlanmoqda.

Monetar siyosatning 2017 yilga mo`ljallangan asosiy yo`nalishlari. Ushbu maqsadga, o`z navbatida, ichki bozorda narxlar barqarorligini va inflyatsiya darajasining 2017 yil uchun o`rnatilgan 5,7-6,7 foizlik maqsadli prognoz ko`rsatkichlari doirasida bo`lishini ta`minlash orqali erishiladi.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy e`tibor 2017 yilda mamlakatimizda iqtisodiyotning prognoz qilinayotgan 7,8 foizlik real o`sish sur`atlari pulga bo`lgan talabini to`liq qondirib borish va real sektordagi investitsion jarayonlarni rag`batlantirishga qaratiladi.

2017 yilda ham valyuta siyosatini amalga oshirishda asosiy e`tibor, inflyatsiya darajasining prognoz ko`rsatkichlarini inobatga olgan holda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratiladi.

Bunda tashqi bozorlardagi noqulay kon`yunkturaning, shuningdek, asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari kurslarining keskin devalvatsiyasining mamlakatimiz iqtisodiyotiga, shu jumladan, to`lov balansiga salbiy ta`sirining oldini olish maqsadida so`mni bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borish siyosatini davom ettirish ko`zda tutilmoqda.


2017 - 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo`nalishida korxonalarining mablag`lari, O`zTTJ, tijorat banklari krediti,

xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 2017 - 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi.

Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog`i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi. 2017 yilda 75 dan ortiq yangi turdagи raqobatdosh tayyor mahsulotlar o`zlashtiriladi. shu jumladan: rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash bo`yicha 217 mln. dollarlik 6 ta loyiha.

Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag`batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda.


Xususan, tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko`ra, 2015 yildagiga nisbatan 23,3 foizga oshib qariyb 80,4 trln. so`mni tashkil etdi (7-rasm).



7-rasm. 2014-2016 yillarda Tijorat banklarining jami aktivlari qoldig`i, mlrd so`m.<sup>10</sup>

<sup>10</sup> O`zbekiston Respublikasi markaziy banki malumotlari asosida ishlab chiqilgan

Xususan, iqtisodiyotning real sektoriga yo`naltirilgan kredit qo`yilmalari hajmi 2016 yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln. so`mga etdi. Mazkur kreditlarning 80 foizini investitsiyaviy maqsadlarga yo`naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi (8-rasm).



8-rasm. 2014-2016 yillarda Tijorat banklarining kredit qo`yilmalari dinamikasi, mlrd so`m.<sup>11</sup>

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda umuman, mamlakatimiz bank tizimining etarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy ta`sirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi.


O`z navbatida, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablag`lar esa, asosan infratuzilma ob`ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish dasturlari bo`yicha uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga yo`naltirilmoqda.

Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar hajmi 2016 yilda ham barqaror sur`atlarda o`sib bordi. Ular asosan «2015-2019 yillarda ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini tarkibiy o`zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani

<sup>11</sup> O`zbekiston Respublikasi markaziy banki malumotlari asosida ishlab chiqilgan

shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturlari»ga kiritilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga yo`naltirilmoqda.

Xususan, 2016 yil davomida korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 12,2 trln. so`m yoki 2015 yilga nisbatan 1,2 barobar ko`p investitsion kreditlar ajratildi (9-rasm).



9-rasm. 2014-2016 yillarda Investitsion kreditlar dinamikasi, trln so`m.<sup>12</sup>

Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YAIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o`tgan yilga nisbatan o`rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o`rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan. SHu jumladan, ma`nan va jismonan eskirgan uskunalarini yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e`tibor qaratiladi. Bu yo`nalishga korxonalarining mablag`lari va tijorat banklar kreditlari hisobidan 602

<sup>12</sup> O`zbekiston Respublikasi markaziy banki malumotlari asosida ishlab chiqilgan

000,0 mln. so`m investitsiyalar yo`naltiriladi, bu esa mahalliy mahsulotlarning, birinchi navbatda, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Harakatlar strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari, xususan mashinasozlik sanoatini uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mashinasozlik mahsulotlari bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish bo`yicha vazifalar belgilangan. Mazkur yo`nalish avvalambor 2017 yilda ushbu sohani tartibga soluvchi O`zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish nazarda tutiladi. Mazkur qonunda quyidagilar aks ettirilishi rejalashtirilgan:

korxonalarning birlashishi va qo`shib olinishida monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish talablarini bixillashtirish;

raqobatni cheklovchi kelishuvlar, bitimlar va kelishilgan harakatlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish;

ustun mavqega ega bo`lgan korxonalarning aktsiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik sub`ektlarining hujjatlarini ko`rib chiqish tartibini soddalashtirish;

manfaatlar to`qnashuvini bartaraf etish maqsadida shu`ba korxona tomonidan ta`sischining ustav fondidan ulush sotib olishini va shu`ba korxona vakillarining ta`sichi kuzatuvchilar kengashida a`zoligini taqiqlash.

Shu bilan birga, «Navoiy», «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalari, shuningdek, yangi tashkil etilayotgan «Urgut», «G`ijduvon», «Qo`qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalaridagi mashinasozlik sanoatit korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda bank muassasalari faoliyatini xalqaro andozalarga mos ravishda yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va elektrotexnika hamda maishiy elektrotexnika mahsulotlarining yangi turlarini o`zlashtirish yo`li bilan elektrtexnika sohasini rivojlantirish maqsadida aksiyadorlik jamiyati korxonalar tomonidan 2014–2018 yillarda import o`rnini bosuvchi, raqobatbardosh

elektrtexnika mahsulotlarining ishlab chiqarish ko‘lамини kengaytirishga yo‘naltirilgan istiqbolli Investision loyihalarni amalgaga oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Amalda bajarilayotgan loyihalar qatorida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

«Sino» OAJda muzlatgichlar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirish hamda konditsionerlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish Investision loyihasi. Mazkur investision loyihaning umumiyligi qiymati 5,3 million AQSH dollariga teng bo‘lib, loyiha doirasida yangi turdag'i zamonaviy «Frost», «No Frost» xolodilniklar hamda konditsionerlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish rejalashtirilgan;

Avvalgi «Motor zavodi» OAJ negizida qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalgaga oshirish yo‘li bilan maishiy elektrotexnika maxsulotlarini ishlab chiqarish va marketing markazini tashkil etish. Mazkur investision loyiha doirasida yangi turdag'i gaz va elektr plitalar, maishiy xolodilniklar va boshqa turdag'i elektrotexnik va elektrmaishiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish rejalashtirilgan. Investision loyihaning umumiyligi qiymati 25 million AQSH dollarga teng;

Respublika energetiki yo‘nalishi oldiga qo‘yilgan masalalarini hal qilishga ko‘maklashish, mamlakatimiz hududi bo‘yicha yuqori quvvatlari elektr uzatish ta’mintonini oshirish uchun yuqori voltli magitsral tarmoqlarini yaratish maqsadida «Navoi» EIIZ hududida «Navoi Cable Connector» MCHJ horijiy korxonasi tashkil etilib, uning negizida hozirgi kunda, alyuminidan elektrotexnik maxsus simlar, kabel maxsulotlari uchun izolyatsion materiallar hamda yuqori kuchlanishli liniyalari uchun muftalar ishlab chiqarishga yonaltirilgan yangi investision loyiha amalgaga oshirilmoqda; «Oniks» OAJda yangi turdag'i yoritish uskunalarini (lyustralar) ishlab chiqarish loyihasi amalgaga oshirilmoqda. Investision loyiha doirasida ishlab chiqarishni tashkillashtirish maqsadida jahoning mashxur ilg‘or kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, bugungi kunda «O‘zkabel» OAJ QK, «Andijonkabel» OAJ QK, «Doyche Kabel AG Tashkent» OAJ QK va «O‘zelektroapparat-Elektroshit» OAJ QK negizida amalgaga oshirilayotgan Investision loyihalar doirasida ishlab

chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishga, hamda kabel-sim mahsulotlari va elektrtexnik yo‘nalishdagi mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish maqsadida mavjud quvvatlarni texnik va texnologik modernizatsiyalash ishlari faol amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash hamda ularning yashash va turmush sharoitlarini yaxshilash bilan birga qurilish ishlari, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi hamda ularga tutash korxonalar mahsulotlariga talabning oshishi natijasida ushbu sohalarning jadal rivojlanishiga asos yaratib, iqtisodiyotning real sektoridagi faollikning oshishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

### **3.2. Mashinasozlik sohasida tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish yo`nalishlari**

Mashinasozlik sohasida tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida sifat menejmenti tizimini shakllantirish. Mashinasozlik korxonalari sifat menejment tizimida tarmoq va xalqaro standartlashtirishning o`rniga tegishli masalani ko`rib chiqaylik. Mashinasozlik sohasi tarmoq va xalqaro sifat standartlari asosida samarali integrallashgan menejment tizimi tushunchasini tahlil qilib chiqamiz. Quyida mashinasozlik sohasida faoliyat ko`rsatadigan zavod sifat menejment tizimida tarmoq va xalqaro standartlar qo`llanilishi tahlili amalga oshiriladi. Mashinasozlik korxonalari timsolida armoq va xalqaro sifat standartlarini tatbiq etish afzalliklari ko`rib chiqiladi. Mashinasozlik sohasi korxonalarida sinab ko`rishda tarmoq va xalqaro standartlarining asoslangan ijobiy tavsifnomalari keltiriladi.

Mashinasozlik sohasi vakili-zavod misolida tarmoq va xalqaro sifat standartlarini tatbiq etishning iqtisodiy samaradorligi ko`rib chiqiladi. Tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida sifat menejmenti tizimini baholash tahlili amalga oshiriladi. Tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida integrallashgan menejment tizimining asosiy elementlari ko`rib chiqiladi. Hozirgi vaqtida tarmoq va xalqaro standartlar asosida sifat menejment tizimini takomillashtirish mavzusi, ayniqsa,

dolzarb hisoblanadi, chunki sifatning rivojlanishi mamlakatimiz mashinasozlik sanoatining rivojlanishini asosiy omillaridan biri sanaladi.

Mamlakatimiz mashinasozlik majmuasi asosiy mahsulotlari tuzilmasiga va yirik kompaniyalar daramadlarining o'sish sur`atlariga e'tibor qarataylik.

Sanoat rivojlanishining joriy bosqichida, aynan, mashinasozlik sanoati korxonalari kam o'rganilgan. Uncha ko'p bo`lmagan ishlar ushbu sohaning sifat menejmenti tizimiga bag`ishlangan. So`nggi vaqtarda etkazib berilayotgan buyumlarga bo`lgan talablar ortib bormoqda. Temir-yo`l majmuasi mamlakatimiz uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Qamchiq dovoni orqali temir-yo`l qurilishi va Farg`ona vodiysini respublikamiz poytaxti va boshqa viloyatlar bilan temir yo`li orqali bog`lash ishlari rejasi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Respublikamizda bu sohadagi olib borilayotgan ulkan qurilishlar natijasida, u yagona iqtisodiy tizimning bog`lovchi zvenosiga aylanadi, sanoat korxonalarining barqaror faoliyat ko`rsatishini ta`minlaydi, o`ta muhim yuklarni mamlakatimizning uzoq burchaklariga o`z vaqtida eltishni uddasidan chiqadi va minglab fuqarolar uchun eng qulay transport turiga aylanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 14-15 may kunlari Pekin shahrida bo`lib o`tgan “**Bir belbog`, bir yo`l**” xalqaro forumida ishtirok etdi va mazkur forumning ahamiyati, uni takomillashtirish va rivojlantirish masalalari haqida so`z yuritdi.

Uzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportni qo`llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshib, tashqi bozorda xaridorgirligi yuksalmoqda. Buyuk ipak yo`li yo`nalishidagi mamlakatlar o`rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “**Bir makon, bir yo`l**” loyihasi O`zbekistonning ham iqtisodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va namoyish etishda muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Shuningdek, Prezidentimiz xalqaro forum ishtirokchilarining davra suhabatida shunday dedi: “Biz tabiiy, ishlab

chiqarish va inson resurslariga g`oyat boy bo`lgan mintaqamizda transport, savdo, investitsiya, energetika va yuksak texnologiyalar sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutamiz. Ikkinci muhim masala – Markaziy Osiyon Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Evropa mamlakatlari bozorlari bilan bog`laydigan transport-logistika yo`nalishlarini ochish bo`yicha hamkorlik yuzasidan kompleks harakatlar dasturi ishlab chiqishdan iboratdir Yurtimiz qadimdan jahon tsivilizatsiyasi markazlaridan biri bo`lgan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati misli ko`rilmagan darajada yuksaldi. O`zbekistonidagi iqtisodiy taraqqiyot mustahkam makroiqtisodiy asos yaratilganidan dalolat beradi. Xorijiy sarmoyadorlarning faol va erkin ish yuritishi uchun keng qulayliklar yaratilgan.

Bunday imtiyoz va imkoniyatlar xorijliklarning O`zbekistonga qiziqishini tobora oshirmoqda. Qadimda turli mintaqalarning o`zaro aloqasida Buyuk ipak yo`lining roli beqiyos bo`lgan. Buyuk ipak yo`li nafaqat hududlar o`rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki davlatlar va qit`alar o`rtasida axborot almashuvini ta`minlashga xizmat qilgan, yangi mahsulotlar va qishloq xo`jaligi ekinlari tarqalishida, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan va shu tariqa tsivilizatsiyalararo muloqot uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Bugun bu yo`lning qayta tiklanishi deb baholanayotgan «Bir makon, bir yo`l» loyihasi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, savdo va investitsiya sohalarida qulay sharoitlar yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo`jaligi, turizm, ta`lim, madaniyat sohalarida hamkorlik salohiyatini oshirishda muhim o`rin tutadi. "**Bir makon, bir yo`l**" loyihasi rivojlangan davlatlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish, rivojlanayotgan, iqtisodi taraqqiyot bosqichida bo`lgan mamlakatlarga yordam berishni ham nazarda tutadi”<sup>13</sup>

Yuqoridagi loyihalar natijasida mashinasozlik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligiga alohida ahamiyat berish lozim. Bunda temir-yo`l

<sup>13</sup> <http://www.ut.uz/oz/politika/shavkat-mirziyev-bir-makon-bir-y-1-forumida-ani-loyi-alarmi-belgilab-berdi/> 2017 iyun 16 may.

mashinasozligining o`rni katta. Temir yo`llar orqali tashish iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirish uchun, sifat darajasi nuqtai nazaridan, yangi temir-yo`l texnikasini joriy etish talab etiladi. Uni faqat mashinasozlik sohasini boshqarishning tanilgan usullari va innovatsion yondoshuvlari asosida yaratish mumkin. Temir-yo`l mashinasozligida sifatni boshqarish tizimining asosiy maqsadlariga: yo`l-harakati xavfsizligi, biznes jarayonlar va texnologiyalarni yaxshilash, kompaniyalar raqobatbardoshligini ortishining asosi hisoblangan, yangi bozorlarni egallash uchun xizmat ko`rsatish sifat saviyasini sezilarli darajada ko`tarish, xodimlar manfaatdorligini orttirish kiradi.

Korxonalarda sifatni samarali boshqarish uchun Ayris (IRIS) temir-yo`l xalqaro sifat standartini tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. U temir yo`l sanoati Evropa assotsiatsiyasining bevosita qo`llab-quvvatlashi natijasida ishlab chiqilgan.

Mazkur xalqaro standart mashinasozlik sanoati korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlari yo`nalishlarining to`la ro`yxatini qamrab oladi (bularga yig`ish, o`rnatish, energotizim, aloqa uzatish tizimi va boshqalar kiradi). ISO 9000 seriyasi standartlari asosida ishlab chiqilgan Ayris (IRIS) temir-yo`l xalqaro sifat standarti bilan mamlakatimizda amaldagi sifat standarti talablarini taqqoslash va integrallashgan menejment tizimini yaratish maqsadga muqofiq. Mashinasozlik sanoati korxonalarida integrallashgan menejment tizimini qurish modeli standartlarning talablarini birlashtiradi va o`zaro munosabatlар samaradorligini kuchaytiradi.

Tarmoq standartining o`ziga xos talablariga tenderlarni boshqarish, loyihalarni boshqarish, dastlabki mahsulotni tekshirish, etkazib berishlar zanjirini boshqarish kiradi. Resurslar menejmentiga bilimlarni boshqarish va ko`p tomonlama loyihalarni boshqarish bo`yicha talablar kiritilgan. Rahbarlik mas`uliyatiga -mijozlar bilan o`zaro munosabatlarni boshqarish. O`lchash, tahlil qilish va takomillashtirish blogiga - tegishli jarayonlarni boshqarish.

Mashinasozlik sanoati korxonalari etkazib beruvchilarining vazifasi mijozlar ehtiyojlarini qondirishning o`sib borishi asosida barqaror raqobatbardosh afzalliklarni yaratish va rivojlantirish imkonini beruvchi vosita hamda

mexanizmlarni topish hisoblanadi. Tarmoq va xalqaro standartlar asosidagi sifat menejmenti tizimi, nafaqat xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilash, balkim ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini orttirish imkonini beruvchi vositalardan biriga aylanishi mumkin. Tarmoq va xalqaro standartlar asosidagi sifat menejment tizimini tashkilotlarning barcha ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga tatbiq etishni, bosqichma-bosqfich, bir necha bosqichlarda amalga oshirish kerak. Bularni har birining natijasi sifatning yangi bosqichiga o`tish bo`ladi.

Samarali sifat menjment tizimini yaratishdan maqsad ichki jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish va iste`molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasini orttirish asosida tashkilot faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ko`tarish hisoblanadi. Umuman manfaatdor tomonlar manfaatlarini qondirishga qaratilgan va ISO 9004:2009 xalqaro standarti talablariga muvofiq qurilgan, etkazib beruvchi tashkilotlarning samarali menejment tizimi boshqaruv, moliya, iqtisodiyot va bozorda ishlashda jiddiy ichki hamda tashqi afzalliklar beradi. Bu afzalliklar, turli manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan yo`qotishlar ehtimolini ongli baholashga va ularni kamaytirish maqsadida, bu yo`qotishlar ehtimollarini muntazam boshqarib borishga asoslangan.

Butlovchi qismlarni etkazib beruvchilar tomonidan, tarmoq va xalqaro standartlar asosida, sifat menejment tizimini shakllantirish bo`yicha masalalar echimidan kutilayotgan natijalar quyidagilar hisoblanadi. Kompaniya ko`rsatadigan xizmatlar iste`molchilari uchun:

- transport bozorining kengaytirilishini, mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasini orttirishni qo`llab – quvvatlash;
- transport xizmat ko`rsatish sifatini va transportdan foydalanish saviyasini orttirish;

Davlat va jamiyat uchun:

- mamlakatning transport bilan ta`minlanganlik darajasini orttirish, aholining tezkor harakatlana olishini ta`minlash va ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirish;

- tranzit potentsialidan samarali foydalanish va uni orttirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga bo`lgan transport yuklamasini kamaytirish va iqtisodiy o`sishni qo`llab-quvvatlash;
- mamlkatning ijtimoiy-iqtisodiy yaxlitligini mustahkamlash;
- tashishlar sohasida xalqaro hamkorlik bo`yicha davlatlararo shartnomalarning bajarilishini ta`minlash;
- yo`qotishlar ehtimolini olish tizimini yaratish hisobiga, temir-yo`l transportidan foydalanishdagi xavfsizlik darajasini orttirish ;
- imidjning ortib borishi;
- mamlakat va xalqaro transport bozorida egallagan o`rmini mustahkamlash (raqobatbardoshlik, investitsiyalar oqimi, sarmoyalari kiritishni orttirish va h.k.);
- ichki chiqim-xarajatlarni optimallashtirish hisobiga faoliyatning foyda keltiruvchanligini orttirish.

Mashinasozlik sanoati korxonalari xodimlari uchun:

- mehnat samaradorligining ortishi va barcha turdagи ishlab chiqarish yo`qotishlari darajasining pasayishi hisobiga qo`shimcha daromad olish;
- kompaniyada ishslash obro`si va ijtimoiy maqomning ortishi;
- o`zining bilim va tajribasidan kelib chiqqan holda, texnologik jarayonlarni optimallashtirishda qatnashish, ish mazmunidan qoniqish hissining ortishi.

Bundan tashqari, mashinasozlik sanoati korxonalarida sifat menejment tizimining yaratilishi quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- reglament (ish tartibi) hujjatlashtirishlarini ishlab chiqish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beruvchi tashkilot faoliyatini formallashtirilgan tavsifi texnologiyasini tatbiq eta olish;
- kompaniyaning yangi xodimlarini tezkor va samarali o`qitishni amalga oshirish;
- kompaniyaning tuzilmaviy bo`linmalari faoliyatini baholash uchun kazorat ko`rsatkichlaritizimini shakllantirish;

- strategik boshqaruvning samarali mexanizmini yaratish;
- kompaniyadagi maqsadli o`zgartirishlarni tanlash va amalga oshirish.

2. Mashinasozlik sohasida tarmoq va xalqaro standartlashtirish asosida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish. Xarid qilishda tarmoq va xalqaro standartlar zamiridagi sifat sohasidagi siyosat ushbu yo`nalishlarda maqsadlarni belgilash uchun asosni ta`minlab beradi. Izlanishlar davomida shu narsaga ishonch hosil qildikki, temir-yo`l sanoati Ayris (IRIS) xalqaro standarti va tarmoq standartiga o`tilishi mamlakatimiz korxonalari uchun jiddiy qadam hisoblanadi. U ishlab chiqarishni chuqur qayta tuzilmalashni talab etadi. Standartlarni temir-yo`l mashinasozligi korxonalariga tatbiq etish jarayonida, tekshiruvlar o`tkazish mobaynida, tsexlarda jarayonli yondoshuv etarli darajada qo`llanilmayotganligi sezilib qoldi. Bu sifat boshqaruvi o`z ichiga qamrab olgan, bir qator talablar bajarilishi samaradorligining pasayishiga asos hosil qiladi, asossiz sarf-xarajatlar o`sishiga olib kelishi, innovatsiyalarga bo`lgan intilishlarning pasayishini keltirib chiqaradi. Bu umuman olganda mashinasozlik korxonalarining, an`anaviy tarzda, jarayonlarni emas, texnologiyalarni tatbiq etishga yo`naltirilgan nozik nuqtasi hisoblanadi.

Ayris (IRIS) xalqaro standarti va tarmoq standartida keltirilgan jarayonli yondoshuv mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishning muhandislik uslubiyatini nazarda tutadi. Farq shundaki, ularni muay`yan bir, “kirish” va “chiqish”ga ega, hayotiy davr o`z ichiga qamrab oladi, shuning uchun uni o`lchash mumkin. Bu esa nazorat ko`rsatkichlariga tayanish, yo`qotishlar ehtimolini aniqlash va o`z vaqtida (og`ir oqibatlarni kutib o`tirmay) tuzatishlar kiritish choralarini qabul qilishiga imkon yaratib beradi. Bundan tashqari, temir-yo`l sanoati xalqaro Ayris (IRIS) standarti va tarmoq standarti tejamkor ishlab chiqarish, mahsulot yaratish bahosini rejorashtirish va sifat falsafasiga asoslangan, yangi korporativ madaniyatni taqdim etadilar.

Mashinasozlik sanoati korxonalari Ayris (IRIS) xalqaro standartini yaratishni davr talabi taqozo etmoqda. Korxonalarning ISO 9001:2008 xalqaro standarti bo`yicha standartlarga egaligi, tizimli integratorlar va ishlatishni amalga

oshiruvchi tashkilotlar tomonidan o`zлari uchun, haqiqatdan ham ishonarali etkazib beruvchilarni asosli tanlovini o`tkazish uchun etarli emasligi ma`lum bo`lib qoldi. ISO 9001:2008 xalqaro standarti bo`yicha sertifikatsiyalash differentsiallashni ko`zda tutmaydi, ya`ni buyurtmachiga, potentsial etkazib beruvchilar sifat menejment tizimi qanday darajada faoliyat ko`rsatayotganligi haqida ma`lumot bermaydi. Bu ma`lumot u yoki bu etkazib beruvchiga bo`lgan ishonch darajasini aniqlab olish imkonini bergen bo`lar edi.

Ayris (IRIS) xalqaro standarti bo`yicha sertifikatsiyalash esa aksincha, korxonaning sifat menejment tizimi darajasi haqida, yuz ballik shkala bo`yicha, ma`lumot beradi. Ayris (IRIS) va ISO 9001:2008 xalqaro standartlari o`rtasidagi quyidagi farqlanishni ham ajratib ko`rsatish mumkin:

- birinchidan, temir-yo`l sanoati korxonalari menejment tizimini tezkor rivojlaniga ko`maklashuvchi, qo`shimcha tarmoq talablari;
- ikkinchidan, audit o`tkazish uchun qayd etilgan 250 ta savolning mavjudligi;
- uchinchidan, Ayris (IRIS) xalqaro standartida, talablari korxonada zudlik bilan bajarilishi ko`zda tutilgan “kurakni erga tekkizuvchi” savollar mavjud;
- to`rtinchidan, Ayris (IRIS) xalqaro standartida baholash sxemasi aniq belgilab qo`yilgan;
- beshinchidan, auditorlar tomonidan baholashda qo`llaniladigan maxsus “Audit-vosita” dasturiy mahsuloti ishlab chiqilgan.

ISO 9001:2008 sifat menejmenti xalqaro standarti Ayris (IRIS) standartining yaratilishi uchun asos bo`lib xizmat qildi. Ayris (IRIS) standarti tarkibiga ISO 9001:2008 talablarining yuz foizi kiritilgan, Ayris (IRIS) standarti matnlarida keltirilmagan bo`lsa-da, ularga ilova qilingan. SHunday qilib, Ayris (IRIS) xalqaro standarti bo`yicha audit, hamma vaqt ISO 9001:2008 standarti bo`yicha auditni o`z ichiga qamrab oladi. Ayris (IRIS) standarti ixtisoslashgan tarmoq standarti hisoblanadi. Uni bu sohada avtomobil sanoati uchun spetsifikasiya bo`lgan ISO/TS 16949:2009 bilan taqqoslash mumkin.

Yuqorida ta`kidlab o`tilgan qo`shimcha talablar, aynan, o`ziga xoslikni belgilab beradi. Sifat menejmentiga bo`lgan talablardan tashqari, Ayris (IRIS) standarti sertifikatsiyalash jarayoniga, sertifikatlar berish organlariga va auditorlarga bo`lgan talablarni o`zida mujassam qiladi.

### **3-bob bo`yicha xulosalar**

O`zbekistonda mashinasozlik sanoati bugungi kunda o`zining rivojlanish pog`onasida turibdi, so`rov natijasida sanoatning rivojlanishiga aks ta`sir ko`rsatayotgan omillar ham aniqlandi. Bular, mamlakatda sanoatning rivojlanish darajasi etarli emasligi; korxona rahbarlarining ishlab chiqarishga bo`lgan e`tiborlarining pastligi; jahon tajribasini etarli darajada qo`llamaslik.

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko`rsatadiki, respublikamiz mashinasozlik tarmog`i yaqin keljakda nihoyatda nufuzli, ilg`or texnika va texnologiya bilan qurollangan, yuksak malakali kadrlarga ega bo`lgan milliy iqtisodiyotning etakchi tarmog`iga aylanadi.

Izlanishlar davomida shu narsaga ishonch hosil qildikki, temir-yo`l sanoati Ayris (IRIS) xalqaro standarti va tarmoq standartiga o`tilishi mamlakatimiz korxonalari uchun jiddiy qadam hisoblanadi. U ishlab chiqarishni chuqur qayta tuzilmalashni talab etadi. Standartlarni temir-yo`l mashinasozligi korxonalariga tatbiq etish jarayonida, tekshiruvlar o`tkazish mobaynida, tsexlarda jarayonli yondoshuv etarli darajada qo`llanilmayotganligi sezilib qoldi. Bu sifat boshqaruvi o`z ichiga qamrab olgan, bir qator talablar bajarilishi samaradorligining pasayishiga asos hosil qiladi.

Mashinasozlik sanoati korxonalarida sifat menejment tizimining yaratilishi reglament hujjatlashtirishlarini ishlab chiqish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beruvchi tashkilot faoliyatini formallashtirilgan tavsifi texnologiyasini tatbiq eta olish, kompaniyaning yangi xodimlarini tezkor va samarali o`qitishni amalga oshirishni amalga oshirish imkonini beradi.

## **Xulosa va takliflar**

O`tkazilgan izlanishlar davomida olingan natijalardan quyidagi xulosa va takliflar kelib chiqadi:

1. Iqtisodiy globallashuv sharoitlarida mamlakatning jahon bozoridagi raqobatdoshligining muhim jihatini yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish va ulardan foydalanish darajasi belgilab beradi. Iqtisodiyotning muhim strategik tarmoqlarida davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash va faol davlat siyosatining olib borilishi natijasida respublikamizning energetika va oziq-ovqat mustaqilligi kabi muhim masalalar hal qilinadi. Mashinasozlikning tez sur`atlar bilan rivojlanishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining yangi tovar nomenklakturasi bo`yicha jadal o`sishiga imkoniyat yaratadi (avtomobillar, radioelektronika va elektrotexnika mahsulotlari va boshqalar).

2. Mashinasozlik sanoati korxonalarining eksport salohiyati alohida ajralgan sektor bo`lmasdan, balki ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Shunday ekan, eksport salohiyati tarkibiga quyidagi asosiy elementlar mansubdir: eksportga mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi korxonalar, firmalar, tashkilotlar; tashqi savdoni amalga oshirishga ixtisoslashgan transport infratuzilmasi, maxsus banklar, lizing va sug`urta tashkilotlari, konsalting xizmati ko`rsatuvchi firmalar; tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirishga ko`maklashuvchi vositachilik tashkilotlari; tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy va boshqaruva tuzilmasi va hokazolar.

3. Mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o`z xususiyatlariga ega. Bular asosan ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqalar. Biz shuni hisobga olgan holda mashinasozlik tovarlari bozorida korxonaning ulushini kengaytirish yoki mavjud mavqeini saqlab qolish uchun quyidagi omillardan foydalanishni taklif qilamiz:

a) yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish, bu o`rinda ishlab chiqarish vositalarining to`liq zmonaviylashtirilishi, nau-xou va patentlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish nazarda tutiladi;

b) sotishni tashkil qilish, bu o`rinda korxonaning sotish kanallari mavjudligi, kadrlar malakasi, vositachilar, yarmarka va ko`rgazmalarda ishtirok etish, xorijiy mamlakatlarda savdo uylari tashkil qilish, ularni konsingatsiya shartnomalari asosida tovarlar bilan ta`minlashni yo`lga qo`yish;

v) servis xizmati ko`rsatishni yo`lga qo`yish, mashina va uskunalarini o`rnatish, ehtiyyot qismlar bilan ta`minlash, ishchilarni o`qitish, uzoq muddatli kafolatli xizmat ko`rsatish;

g) reklamani amalga oshirish, reklama iste`molchi uchun kurash qurolidir, samarali reklamani yo`lga qo`yish, reklama vositalaridan keng foydalanish, buklet va kataloglar tuzish, maxsus oynoma va ro`znomalarda reklamani doimiy ravishda berib borish.

4. Mashinasozlik sanoati korxonalari tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ikki muhim vazifani hal etishga xizmat qiladi. Birinchi vazifa bajarilishining oxirgi natijalari eksportni ko`paytirishdan iborat. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- tashqi bozorlarda milliy mashinasozlik korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning doimiy bo`lishini ta`minlash;

- barcha eksport tovarlari bo`yicha tashqi bozor kon`yunkturasini marketing asosida taqiq qilish;

- tovarlarni reklama qilish va iste`molchilarga etkazib berish ishlarini operativ tizimini tashkil etish.

5 «O`zelteksanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda o`tkazilgan tadqiqotlari natijasi shuni ko`rsatadiki, korxonalarining ko`pchiligi texnologik va innovatsiya tadbirlari jihatdan qoloq, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanilmaganligi, asosiy fondlarning moddiy va ma`naviy jihatdan eskirganligi, yangi tovarlarni ishlab chiqarishga joriy qilish darajasi pastligi tufayli tovarlar o`z haridorini topa olmayapti.

---

6. «O`zeltexsanoat» assotsiatsiyasi tarkibiga kiruvchi ko`pgina korxonalar V2V- tizimida faoliyat olib boradilar. Ya`ni ishlab chiqarilgan ma`sulot yana qayta mahsulot ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Demak, mashinasozlik sanoati mahsulotlari marketingi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Bular quyidagilar: sotish va xarid qilishning katta hajmda ekanligi; mahsulotlarning texnika jihatdan ancha murakkabligi; xaridorlarning katta tavakkal qilishlari; sotib olish davrining bir muncha uzunligi; sotib olish haqida qaror qabul qilish jarayonining bir qadar murakkabligi; xaridorlarning tovarlarni aniq tushunishi, bilishi, mutaxassis ekanligi; iste`molchi va sotuvchilar o`rtasidagi munosabatlarning nisbatan yaqinligi; ishlab chiqaruvchi va iste`molchilarning bir-birlariga o`zaro ta`siri; oldi-sotdi ishlarining uyushgan bozorlarda amalga oshirilishi.

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko`rsatadiki, respublikamiz mashinasozlik tarmog`i yaqin kelajakda nihoyatda nufuzli, ilg`or texnika va texnologiya bilan qurollangan, yuksak malakali kadrlarga ega bo`lgan milliy iqtisodiyotning etakchi tarmog`iga aylanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

### **I. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2015. 40 bet.
2. O`zbekiston Respublikasining « O`zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to`g`risida»gi Qonuni 20 yanvar`, 2016
3. O`zbekiston Respublikasining «Soliq va byudjet siyosatining 2016 yilga mo`ljallangan asosiy yo`nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi Qonuni 31 dekabr`, 2015
4. O`zbekiston Respublikasining «Raqobat to`g`risida»gi Qonuni //«Xalq so`zi» gazetasi. 7 yanvar 2012 yil
5. O`zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to`g`risida»gi Qonuni. Qonun va qarorlar. -T.: O`zbekiston, 2011.
6. O`zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi Qonuni 1996 yil 26 aprel` // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to`plami. 1 tom. - T.: O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.

### **II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

7. “Iqtisodiy nochor korxonalarni qo`llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko`chmas mulk ob`ektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 20.04.2017 yildagi PF-5022-son, kuchga kirish sanasi 01.05.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 17-son, 286-modda

8. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta`minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 18.04.2017 yildagi PF-5019-

son, kuchga kirish sanasi 01.05.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 17-son, 285-modda

9. “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 13.04.2017 yildagi PF-5012-son, kuchga kirish sanasi 17.04.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 15-son, 246-modda

10. “Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturiga tuzatishlar kiritish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 10.04.2017 yildagi 197-son, kuchga kirish sanasi 17.04.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 15-son, 253-modda

### **III. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI to‘g‘risida» gi Farmoni. 7 fevral 2017 yil. <http://press-service.uz/uz/document/5482/>.

12. Mirziyoev Sh.M. “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” mavzysidagi ma`ryza – Xalq so`zi. 2016 yil 16 yanvar.

13. “2017 yilgi soliq va byudjet siyosatining asosiy yo`nalishlari qabul qilingani munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga qo`shimcha va o`zgartishlar kiritish, shuningdek, ba`zilarini o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblash to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 18.03.2017 yildagi PF-4993-son, kuchga kirish sanasi 03.04.2017, Manba: O`R QHT, 2017 y., 13-son, 198-modda

14. “Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 15.03.2017 yildagi PQ-2836-son, kuchga kirish sanasi 27.03.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 12-son, 185-modda

15. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori

10.04.2017 yildagi 196-son, kuchga kirish sanasi 17.04.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 15-son, 252-modda

16. “Tadbirkorlik sub`ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 17.03.2017 yildagi PQ-2844-son, kuchga kirish sanasi 27.03.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 12-son, 187-modda

17. “O`zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 31.03.2017 yildagi PQ-2862-son, kuchga kirish sanasi 10.04.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 14-son, 216-modda

18. “O`zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo`yicha davlat qo`mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 04.04.2017 yildagi PQ-2868-son, kuchga kirish sanasi 10.04.2017 Manba: O`R QHT, 2017 y., 14-son, 219-modda

19. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.// Xalq so`zi. 16 yanvar 2016 yil.

#### **IV. Asosiy adabiyotlar**

20. M.Abduraxmanova. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.2014 y. 9.b

21. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. Учебник.-М.: Финансы и статистика. 2015.–С. 464.

22. M.Abduraxmanova. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.2017 y. 10.b

23. J.Jalolov. A.Fattaxov va.b. “Biznes marketingi”. Toshkent. “Moliya-iqtisod” 2007 y. 163-bet

24. B.Parpiev. Bankka yangi mijozlarni jalg etish va mijozlar siyosatini amalga oshirish xususiyatlari. "Iqtisodiyot va ta`lim", 2011 yil,6-son. 127 b,
25. Sh.Saidboev. I.Sirojiddinov. Bank menejmenti va marketing. «Namangan»,2011 y. 54 b.
26. Боди З., Кейн А., Маркус А. Принципы инвестиций в машиностроение, 4-е издание.: Пер. с англ. "Вилямс", 2013. — 984 с.;
27. Зайцев С. А., Толстов А. Н., Грибанов Д. Д., Куранов А. Д. Метрология, стандартизация и сертификация в машиностроении; Академия - Москва, 2015. - 288 с.
28. Звяголский Ю.С., Солоненко В.Г., Схиртладзе А.Г. Технология производства режущего инструмента; Высшая школа - Москва, 2015. - 336 с.,
29. Марков Н. Н., Осипов В. В., Шабалина М. Б. Нормирование точности в машиностроении; Высшая школа, Академия - Москва, 2015. - 336 с.
30. Маслов А. Р. Инstrumentalные системы машиностроительных производств; Машиностроение - Москва, 2016.
31. Царев В. В. Оценка конкурентоспособности предприятий (организаций). Теория и методология: учеб. пособия.- М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2015. – 799 с.
32. Покровский Б. С. Механосборочные работы. Базовый уровен; Академия - Москва, 2014. - 950 с.,
33. Xalqberdiev T.U., Abdullaxanov N.S., Aliqulov D.E. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari, ma`ruzalar matni, TDTU, 2010 y
34. Omirov A.Y., Mashinasozlik texnologiyasi asoslari, ma`ruzalar matni, NamMPI, 2010 y.
35. Qayumov A.X. Tarmoq mashinasozlik texnologiyasi (1-qism), ma`ruzalar matni, NamMPI, 2010 y.
36. Qayumov A.X. Tarmoq mashinasozlik texnologiyasi (2-qism), ma`ruzalar matni, NamMPI, 2009 y.

37. Схиртладзе А. Г., Иванов В. И., Кареев В. Н. Гидравлические и пневматические системы; Издательство МГТУ "Станкин", Янус-К - Москва, 2013. - 544 с.

### **V. Qo`shimcha adabiyotlar**

38. Филонов И. П., Баршай И. Л. Инновации в технологии машиностроения; Высшая школа - Москва, 2015. - 112 с. 25. Холодкова А. Г. Общая технология машиностроения; Академия - Москва, 2013. - 224 с.

39. Андреева О.Д. Технология бизнеса. Маркетинг. Учеб. пособ. -М.: ИНФРА-М, 1997.

40. Абрамишвили.Г.Г. Проблемы международного маркетинга. -М.: Международные отношения, 2014.

41. Xodiev B.Yu, Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» nomli asarini o`rganish bo`yicha O`quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2016. – 340 bet.

### **VI. Davriy nashrlar, statistik to`plamlar va hisobotlar**

42. O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2015 yillar) asosiy tendentsiya va ko`rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo`ljallangan prognozlari: statistik to`plam. – Т.: “O`zbekiston”, 2011.

43. O`zbekiston Respublikasining 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari.

44. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo`mitasi ma`lumotlari

45. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma`lumotlari

46. “Xalq so`zi” gazetasining 2015-2016 yillardagi sonlari

47. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2016 г. – Ташкент, 2016.– 95 с.

48. Статистический ежегодник. 2016. – Ташкент, 2016. – 392 с.

## **VII. Internet saytlari**

49. <http://www.mf.uz> (O`zbekiston Respublikasi moliya vazirligi)
50. <http://www.uzeltexsanoat.uz> («O`zeltexsanoat» AK )
51. <http://www.gov.uz> (Hukumat sayti)
52. <http://www.wto.org> (Xalqaro savdo tashkiloti)
53. <http://www.tsue.uz> (TDIU sayti)
54. <http://www.stat.uz>. (O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qomitesi)
55. <http://www.cbu.uz> - Markaziy bank